

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKUL'TETI
VATAN TARIXI KAFEDRASI**

**Mustaqil O`zbekiston tarixinining dolzarb
muammolari**

MA'RUZA MATNI

NAMANGAN – 2010

Fanning ma'ruza matni Namangan davlat universitetining Tarix fakul'teti ilmiy kengashining 2010 yil «28» avgust 1–son majlisida muhokama etildi va ma'qullandi.

Tuzuvchi: t.f.n. Z. Madrahimov

Ilmiy kengash raisi, t.f.n.: _____ t.f.n. R. Jorayev.

Bayonnoma №____ «____» _____ 2010 yil

Kelishildi:

Vatan tarixi kafedrasi mudiri, t.f.d.prof.: _____ A. Rasulov

«____» _____ 2010 yil

© Namangan davlat universiteti

Kirish: O'zbek xalqining kelib chiqishi va o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish muammolari.

Reja:

- 1. O'rta Osiyo xalqlari tarixini yangicha davrlashtirish masalasi.**
- 2. O'zbek xalqining kelib chiqishi haqida ilmiy kontsepsiyalar va qarashlar.**
- 3. Bugungi kundagi o'zbek tarixshunosligida miliy davlatchilik tarixi masalasi.**

1. Odamzod va uning jamiyat tarixi juda qadimiy va murakkabdir. U bir necha yuz ming yilni o'z ichiga oladi. Ana shu ko'p ming yillik tarixiy davr ichida insoniyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy rivojlanish darajasiga ko'ra, qator tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi.

XX asrning 30 yillarida O'rta Osiyoda hali arxeologik izlanishlar izga tushib, kishilik jamiyati tarixini davrlashtirishda arxeologik manbalardan foydalanish amaliyoti shakllanmagan paytda V.V.Bartol'd yozma manbalar asosida O'rta Osiyo xalqlari tarixining davrlashtirish tizimini ishlab chiqqan. Bunga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari tarixi «Musulmonchilikkacha bo'lgan davr», «Mo'g'ullargacha bo'lgan davr», «Mo'g'ullar davri» va «Temuriylar davri» nomlari bilan davrlashtirildi. Biroq, 30-yillarning o'rtalariga kelib, V.V.Bartol'dning O'rta Osiyo xalqlari tarixi haqidagi kontsepsiyasida haqiqiy tarixiy jarayonlar o'z aksini topa olmaganligi ma'lum bo'lib qoldi. Masalan, V.V.Bartol'dning "Axamoniylar va Iskandar Zulqarnayn davridagi ijtimoiy tuzum nafaqat milodiy VII-VIII asrlarda, balki arablar istilosidan keyingi bir necha asrlar davomida ham shundayligicha saqlanib qolavergan", degan g'oyasi tarix haqiqatiga zid edi.

1936 yili Leningradda (hozirgi Sankt-Peterburg da) SSSR FA sining Moddiy madaniyat tarixi institutida O'rta Osiyo xalqlari tarixi va arxeologiyasiga bag'ishlangan maxsus yig'ilishi bo'lib o'tgan. Yig'ilishda olimlar O'rta Osiyoning arablargacha bo'lgan davri tarixini yoritishda yozma manbalarning o'zi kifoya qilmasligini, binobarin mintaqada arxeologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish kerakligini alohida ta'kidladilar. Yig'ilishda V.V.Bartol'dning O'rta Osiyoda musulmonchilikka qadar davr tarixi haqidagi kontsepsiyasi atrofida ko'p bahslar bo'ldi. Olimlar orasida V.V.Bartol'dning yuqorida zikr etilgan "O'rta Osiyoda Axamoniylar va Iskandar Zulqarnayn davridagi ijtimoiy tuzum nafaqat milodiy VI-VIII asrlarda, balki arablar istilosidan keyingi bir necha asrlar davomida ham shundayligicha saqlanib qolavergan" degan fikriga dadil qarshi chiquvchilar ham bo'ldi. Yig'ilishda akademik V.V.Struve Qadimgi SHarq materiallariga asoslangan holda, "O'rta Osiyoda musulmonchilikkacha quldorlik jamiyati bo'lgan", degan g'oyani olg'a surdi. Keyinroq V.V.Struveni S.P.Tolstov qattiq himoya qilib chiqqan. Biroq, mintaqada musulmonchilikka qadar yozma manba materiallarining yo'qligi xamda arxeologik materiallarning hali etarli emasligi bois, ko'pchilik yig'ilish qatnashchilari O'rta Osiyoda arablargacha quldorlik jamiyati bo'lganligiga shubxa bildirdilar. SHundan so'ng kishilik jamiyati tarixini 5 ta ijtimoiy-iqtisodiy farmatsiyalarga bo'lib o'rganishga o'tilib butun O'rta Osiyo hududlari bo'ylab keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar o'tkazishga kirishildi.

Qadimgi Xorazmda S.P.Tolstov va YA.G'.G'ulomov, Zarafshon vodiysida A.YU.YAkubovskiy va V.A.SHishkin, "Eski Termiz"da M.E.Masson, Yettisuvda

A.N.Bernshtam, Farg'ona vodiysida B.A.Latininlar ish olib bordilar. Ikkinchi Jaxon urushi tufayli vaqtinchalik faoliyatini to'xtatgan arxeologik ekspeditsiyalar urushdan so'ng o'z ishlarini nafaqat tikladi, balki ekspeditsiyalarning ilmiy ishlar ko'lamini yanada kengaytdi. To'plangan boy arxeologik va antropologik material to'plamlari chop etildi va ularning taxlili asosida ilmiy monografiyalar va respublika xalqlari tarixining dastlabki nashrlari chiqarib boshlandi.

1948 yili FA Moddiy madaniyat tarixi institutining Leningrad bo'limida O'rta Osiyoda arxeologik tadqiqotlar olib borishning istiqbollari belgilandi va arxeologik materiallar asosida mintaqalar xalqlari qadimgi tarixini davrlashtirish masalasida maxsus plenum chaqirildi. 1954 yilda esa Toshkentda O'rta Osiyo va Qozog'iston tarixining sovetlargacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan ilmiy sessiya o'tkazildi, unda mintaqalar xalqlari tarixini davrlashtirish masalasida erishilgan yutuqlar va ayrim kamchiliklar ko'rib chiqildi. Ana shu ilmiy anjumanda ishlab chiqilgan davrlashtirish printsiplari asosida O'zbekiston tarixining navbatdagi nashri maydonga keldi. Bunga ko'ra, ushbu zaminda kishilik jamiyatining tarkibi, shakllanishi, iqtisodiy va siyosiy hamda etnomadaniy rivojlanishi, yuksalish va davriy inqirozlarini kuzatib borish hamda muayyan jamiyatning ijtimoiy tarkibi va mulkka egalik qilish tartibini aniqlash davrlashtirishning asosiy mezonini qayta belgilandi. Ana shu printsiplar asosida mintaqalar tarixini davrlashtirishda sharqshunoslik, arxeologiya, etnografiya, antropologiya fani darg'alari A.YU.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, K.V.Trever, L.V.Oshanin, YA.G'.G'ulomovlar ilk qaldirg'ochlar bo'lishgan edi. SHunday qilib, shorolar davri tarixi fanida kishilik jamiyati tarixini beshta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya (**Ibtidoiy jamoa tuzumi, Quldorlik, Feodalizm, Kapitalizm va Sotsializm**) ga bo'lib o'rganish an'anaga aylandi.

Keyingi yillarda tariximizning ayrim dolzarb muammolarini yangicha qarashlar asosida yo'ritishga qaratilgan bo'lishimizga qaramay, O'zbekiston tarixining eng qadimgi davrlaridan to'xozirgi kunimizga qadar bo'lgan jarayonini davrlashtirish masalasi hozirgacha o'zining to'liq ilmiy echimini topgani yo'q. To'g'ri, ba'zan ilmiy anjumanlarda, olimlar orasidagi o'zaro baxs va suxbatlarda tarixni davrlashtirish masalasida sivilizatsion metodni qo'llash maqsadga muvofiq, degan g'oyalar ham ilgari suriladi. Ammo bu masalada ham hali aniq bir to'xtamga kelingani yo'q.

Ma'lumki, insoniyat tarixi doimo bir tekisda rivojlanmagan. Tarixda yuz bergan davriy madaniy yuksalishlar sivilizatsiyalar (tamaddunlar) tarixini tashkil etadi. Kishilik tarixi o'z taraqqiyot yo'lida 5 marta yirik sivilizatsion (tamaddun) yuksalishlarini boshidan kechirdi. **Birinchi tamaddun** dastlab, mil.avv. III ming yilikda Frot va Dajla, Nil va Hind daryolari havzalarida yuz berdi. SHuning uchun u tarixga «Qadimgi SHarq tamadduni» nomi bilan kirdi. Uning ta'sir doirasi mil.avv. 3 ming yillikning oxirlarida shimoli-sharqiy Xurosonga va 2 ming yillik boshlarida Movarounnaxrga yoyildi. **Ikkinchi jaxon tamadduni** mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida Gretsiya va Rimda yuz berdi. U tarixda «Antik davr tamadduni» nomi bilan mashxur. Makedoniyalik Iskandarning Qadimgi SHarqqa tomon harbiy yurishlaridan so'ng bu tamaddunning ta'sir doirasi O'rta Osiyoga kirib keldi va «Osiyo-Evropa ellinizm tamadduni»ning shakllanishiga olib keldi. **Uchinchi tamaddun** o'chog'i Movarounnahr va Xuroson bo'lib, ushbu hududlarda u milodiy IX-XIII asr boshlarida yuz berdi va uning ta'sirida Evropa uyg'ondi. **To'rtinchi tamaddun** XIV-XV asrlarda Evropa va Osiyoda yuz

bergan uygonish davri bilan bog'liq va nixoyat **beshinchi tamaddun** jamiyat rivojlanishining barcha jabhalarini qamrab olgan XX asr tamaddunidir. Tamaddunlar oralig'ida notekis rivojlanishlar, uzoq yillar davom etgan turg'unliklar va tez-tez davriy inqirozlar yuz berib turgan. Demak, kishilik tarixi uzluksiz davom etgan tamaddunlar tarixidagina iborat emas. SHunday ekan, tarixni davrlashtirish uchun tarixiy jarayonlarni ob'ektiv aks ettiruvchi omillar asos qilib olinmog'i kerak.

Avvalambor, O'zbekiston tarixi jahon tarixining tarkibiy qismidir. Bu zaminda yuz bergan tarixiy jarayonlarni jahon tarixidan ajratib o'rganish mumkin emas. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jamiyat taraqqiyot qonuniyatlarining mahsulidir. Har bir xalq er kurrasining qaysi mintaqasida yashamasin, taraqqiyotning barcha bosqichlarini u yoki bu darajada bosib o'tishi shart. O'rta Osiyo tarixi davrlashtirilsa, uning yuragi, ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan O'zbekiston tarixini quyidagi xronologik davriy tizimda ko'rish mumkin:

1. O'zbekistonda "Ibtidoiy to'da davri". Bu davrning xronologik chegarasi odamzodning Fergantrop-Neandertal ajdodlari yashagan davri (mil.avv. 1 million-12 ming yilliklar) bilan belgilanadi. Bu davrda mulkchilikning xech bir shakli bo'lmagan. Odamzod ilk ibtidoiy xolatidan tom ma'nodagi odam holatiga o'tish, fikrlovchi odam bo'lib shakllanish jarayonini boshidan kechirgan. Toshidan mehnat qurollari yasash va ular yordamida ijtimoiy mehnat qilishi bilan boshqa jonzodlardan tubdan farq qilgan. Ammo ularning mafkuraviy dunyosi tartibsiz «nikoh» me'yorlari asosida kurilgan edi. Bu davr odamlarida hali jamoa bo'lib yashash ko'nikmalari shakllanmagan edi.
2. O'zbekistonda «Ibtidoiy urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri». Uning xronologik chegarasi — urug jamoalarining tarkib topishidan (bundan 40 ming yil avval) milodiy III-IV asrlargacha. Bu davrda jamiyat iqtisodiy hayotining ijtimoiy tarkibi dastlab matriarxat urug' jamoalari an'analari va so'ng patriarxat urug' jamoalarining erkin dehqon jamoa a'zolari - kashovarz, ozodkor va guvakorlardan tashkil topgan. Mulkka egalik qilish dastlab (matriarxat davrida) ijtimoiy xarakterda, so'ng (patriarxat davrida) erkin ishlab chiqarish jamoa a'zolariga tegishli xususiy mulk shakllanadi. Jamiyat mafkuraviy asosini dastlab tabiat xodisalariga sig'inish: totemistik, animistik, sehrgarlik (matriarxatda), otapsharastlik diniy qarashlar (patriarxatda), so'ng esa zardushtiylik va buddaviylik, moniylik, nasroniylik va shamanizm tashkil etadi.
3. O'zbekistonda «Ilk o'rta asrlar davri». Uning xronologik chegarasi — milodiy IV asrdan to IX asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda feodal mulkchilikning badavlat dehqonzodalar timsolida shakllanishi va rivojlanishi, erkin dehqon jamoa a'zolar — kashovarzlarni kadivarlarga aylanish jarayonining jadal kechishi kuzatiladi. Mulkchilikda xususiy mulk, jamoa mulki, vag'nze mulki (zardushtiylik ibodatxonalariga tegishli mulki) tarkib topali. O'rta Osiyoda turkiy etnik qatlamning qalinlashishi bilan bog'liq etnomadaniy jarayonlar jadal kechadi. Davlatchilikning muxim bosqichlaridan hisoblangan maxalliy hokimiyatchilik bu davr davlat tizimining asosiga aylanadi, yarim o'troq, yarim ko'chmanchi eftaliylar davlati va turk xoqonligi siyosiy va harbiy xokimiyatni qo'lga tutgan holda,

maxalliy boshqaruv tizimi asoslariga putur etkazmay saqlab qoladi, nixoyat, maxalliy davlatchilik qurilmalari negizida markazlashgan feodal somoniylar davlati asoslari yaratiladi. Bu davrning mafkuraviy asosida dastlab (IV-VII asrlar) asosan zardo'shtiylik, qisman nasroniylik, moniylik va budaviylik yotadi. Arab istilolalaridan so'ng (VIII asrdan boshlab) jamiyatning ma'naviy, axloqiy va mafkuraviy dunyosini islom e'tiqodi egallaydi.

4. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistan tarixining «O'rta asrlar davri». Uning xronologik doirasi — somoniylar davlatini tashkil topishidan to XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda feodal munosabatlarning uzil-kesil shakllanishi va rivojlanishi, yuksakliklarga ko'tarilishi va nixoyat o'zaro ichki va tashki feodal jangu jadallar tufayli jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotida turg'unlik va inqirozlar kuzatiladi, jamiyat ijtimoiy tarkibini asosan koranda-ijarachilar va katta mulk egalari tashkil etadi, mulkka egalik qilishning xususiy va vaqf mulk tartibi mustaxkamlanadi, mulkchilikda davlat (amlok) va "iqto" (davlat oldidagi xizmatlari uchun podsholik tomonidan in'om etiladigan) mulki shakllari paydo bo'ladi va mustaxkamlanadi, jamiyat ma'naviy xayotining mutloq asosini islom mafkurasini qamrab oladi.
5. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistan tarixining beshinchi davrini «Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri» deb atash mumkin. Uning xronologik chegarasi CHor Rossiyasi bosqinidan to 1917 yil Oktyabr to'ntarishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda Rossiya kapitalining O'rta Osiyoga kirib kelishi munosabati bilan o'lkada kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllanib boradi, ishlab chiqarishdagi yangi munosabatlar tufayli feodal tartiblar va an'anaviy xalq xunarmandchiligining zaminiga zil ketib, jamiyat ijtimoiy tarkibida yollanma mexnat resurslari va maxalliy burjuylar hamda millat va vatan taqdiri to'g'risida qayg'uruvchi milliy ziyolilar tabaqasi paydo bo'ladi. Jadidchilik timsolida o'rta asrlar davri feodal bikiqligidan chiqishga intilish, G'arb dunyosi bilan aloqa qilish, ular ta'sirida avom xalqni ma'rifatga tortish harakatlari jonlanadi. Mamlakat er osti va er usti boylik zaxiralarini shakllanib kelayotgan maxalliy ishbilarmonlar tashabbusida kapitalistik ishlab chiqarish yo'nalishiga solib yuborish foydadan xoli emasligiga tushunib etish ko'zga tashlana boradi.
6. O'zbekistan tarixining oltinchi davri «Sovetlar davri» bo'lib, bu davrda jamiyat xayotining barcha jabhalari kommunistik mafkura g'oyalari asosida qurildi, jamiyat ijtimoiy tarkibi ishchi va dehqon sinfi hamda ularning avangard otryadi ziyolilar tabaqasidan iborat bo'ldi. Mulkchilikning ijtimoiy xarakteri ta'kidlansa-da, amalda mulkchilikning davlat monopolistik kapitalizmi hukmronlik qilgan. Konstitutsiyada din erkinligi qayd qilinsa-da, amaliy hayotda ateistik dunyoqarash jamiyat ma'naviy va mafkuraviy asosini tashkil etdi.
7. Uzbekistan tarixining ettinchi davri o'z mazmun-mohiyati bilan «Milliy istiqlol, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish davri» deb atashni taqozo etadi. Bu davr o'zbek xalqi va davlatchiligining yangi sahifasi, milliy boyliklar va ishlab chiqarishning barcha jabhalari bo'yicha erishilgan

yutuqlarning xalq manfaatiga yo`naltirilgan davri, milliy qadriyatlarining qaytadan tiklanish davri, dunyo xaritasida «O`zbekiston Respublikasi» deb ataluvchi suveren davlatni jaxon hamjamiyati va jamoatchiligi tomonidan tan olingan davri sifatida tarixga kiradi. Ijtimoiy yo`naltirilgan siyosat, mayda va o`rta xususiy mulk egaligi jamiyat ijtimoiy tarkibining mutloq asosiga aylanishi, mustaqillik mafkurasi va uni jamiyat a`zolari tomonidan chuqur idrok etilishi qurilayotgan huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyati mazmunini tashkil etadi. O`zbekiston fuqarolari uchun diniy erkinlik, diniy bag`rikenglik nafaqat qonunda, balki amaliy hayotda ham o`z aksini topadi.

Yuqorida qayd etilgan har bir davr o`z navbatida bir necha tarixiy bosqichlardan iborat bo`lib, ular haqidagi tegishli tafsilotlar hamda ularning mazmun-mohiyati tarix fanida hozirgacha amal qilib kelayotgan davrlashtirish printsiplari bilan qiyosiy o`rganib chiqildi.

2. XX asr 20-yillarida, O`rta Osiyoda "etnik belgilar"ga qarab o`tkazilgan "milliy chegaralash" siyosati tufayli 5 ta milliy respublika tashkil etilgandan keyin tarix fanida asta-sekin yangi kontseptsiya, ya`ni "milliy avtohtonizm" nazariyasi shakllana boshladi. Bunga ko`ra, barcha turkiy tilli xalqlar kelib chiqishi jixatidan o`zlari egallab turgan xududlar bilan azaldan bog`liqdir, degan g`oya o`rtaga tashlandi. Ma`lumki, turkiy tilda so`zlashuvchi xalqlarning har birida o`ziga xoslik, etnomadaniy va antropologik o`zgachalik mavjudki, u belgilar aynan ugla millatni boshqalardan ajratib turadi. SHo`rolar davrida tarix fani va uning arxeologiya, antropologiya va etnografiya sohalarida o`tkazilgan tadqiqotlar aynan ana shu mentalitetni ilmiy o`rganishga, etnogenetik jarayonlarning tarixiy izchilik bilan, birlamchi manbalar asosida ob`ektiv taxlil qilishga qaratildi. Natijada, muammo ilmiy yechimiga qaratilgan bu kompleks tadqiqotlar etnogenez va etnik tarixni o`rganishda yangi ilmiy kontseptsiyani, ya`ni "milliy avtohtonizm" kontseptsiyasining tug`ilishiga olib keldi. Bu kontseptsiya etnik nom ostida "qizil imperiya" tarkibida milliy respublikalarni tashkil etilishiga, milliy tillarning tarkib topishiga, o`zlikni anglash va har bir xalqqa xos milliy mentalitetning yanada shakllanishiga xizmat qildi.

SSSR parchalangach, Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga qiziqish keskin oshdi, bu yaxshi alomat. Ammo milliy turkchilikka urg`u berish, turk patriotizmi g`oyasi, birinchi navbatda, ijodiy intelegentsiya orasida yangi impuls oldi. Ularga murakkab tarixi-mizni, jumladan Turkiston o`lkasidagi etnogenetik jarayonlar tub moxiyatini tushunib etmagan ba`zi bir olimlar ham ergashdilar. Va turkiy xalqlarning kelib chiqish ildizlari bir xil, yagona turkdir, deb hech qanday ilmiy asossiz maqola va kitoblar chiqara boshladilar. Etnosning shakllanishi bilan bog`liq nazariy masalalar o`z davrida prof. A.YU.Yakubovskiyning "O`zbek xalkining yuzaga kelishi masalasi haqida" risolasida aniq bayon etilgan. Bu yuqorida ta`kidlangan milliy avtohtonizm nazariyasi bo`lib, bu kontseptsiya tarafdorlari o`zbek va tojik xalklarining kelib chiqish ildizlari ikki etnik komponentlarning asrlar davomida qorishuvi asosida, turk-sutdiy etnik qatlamlar asosida kurulganligini qattiq ximoya qilib chiqdilar. A.Yakubovskiyning yozma manbalar va birlamchi arxeologik materiallarni qiyosiy o`rganish asosida ko`rilgan bu g`oyasi O`rta Osiyo xalqlari qadimgi va o`rta asrlar davri tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasining chuqur bilimdonlari-atoqli ustozlar S.P.Tolstov va YA.G'.G'ulomov,

taniqli antropologik olimlar L.V.Oshanin va V.V.Ginzburg hamda boshqalarning asarlarida keng ilmiy isbotini topdi va rivojlantirildi.

Etnosning muxim alomatlaridan biri uning tilidir. Til ko'pincha xalq etnogenezining yakuniy bosqichi xisoblanadi. Masalan, o'zbek xalqining uzil-kesil shakllanishida til o'zbek etnogenezining yakuniy omili bo'ldi.

Akademik K.SHoniyozov, o'zbek etnogenezi va etnik tarixiga doir asarlarida o'zbek xalkining shakllanishi IX-X asrlarda yuz berdi deb yozadi. SHuningdek, fanda Qoraxoniylar davlatining tarkib topishi bilan (IX-X, hatto XI asrning birinchi yarmida) o'zbek elati xalq sifatida shakllandi, degan tasavvur mavjud. Ammo Qoraxoniylarning davlat tili umumturk tili edi, uning tarkibidan hali qarluk va chigil til lahjalari asosida shakllangan eski uzbek tili ajrab chiqmagan edi. XI asrning o'rtalarida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo'lingach, uning g'arbiy viloyatlari doirasida, Movarounnaxr va Xorazm, ularga yaqin tevarak-atrofdagi qarluk va chigil til lahjalari asosida, ularni o'lib borayotgan sugdiy, xorazmiy, bohtariy tillari hamda bu zaminga kirib kelgan fors va arab tillari bilan ko'rishuvi natijasida asta-sekin eski o'zbek tili rivojlanib, umum turk tilidan XII asrda ajrab chiqdi.

SHuni xam unutmaslik kerakki, turli etnoslar bir tilda so'zlashishlari ham mumkin. Masalan inglizlar, avstraliyaliklar bir tilda —ingliz tilida so'zlashadilar. SHuningdek, bu tilda AQSH aholisi, kanadaliklarning katta qismi, Yamayka oroli, Yangi Zelandiyaliklar, irlandlar, Markaziy Amerika aholisi so'zlashadi. To'g'ri, ingliz tilining bunchalar keng yoyilishi kapitalizmning mustamlakachilik siyosati samarasi bo'lib, ayni vaqtda ular emigrant mamlakatlar bo'lsalarda, amalda turli etnoslar xisoblanadilar. Demak, etnosning shakllanishida til xamma vaqt ham hal qiluvchi alomat bo'la olmasligi mumkin ekan. Etnosga xos alomatlar sirasiga moddiy va ma'naviy madaniyat, milliy etnik alomatlar: urf-odatlar, marosimlar, xalq san'ati, axloq-odob me'yorlari, etnomadaniy qadriyatlar xam kiradi.

Mavjud ilmiy qarashlar majmuasida milliy avtohtonizm g'oyasi o'zining ilmiyligi bilan tarix fanida o'z o'rnini egalladi. Ushbu kontsepsiya asosida, ayniqsa, o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi muammolarini o'rganishda akademik K.SHoniyozovning xizmatlari alohida taxsinga sazovardir. U qariyb yarim asrlik ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi o'zbek va boshqa qardosh xalqlar etnogenezi va etnik tarixini izchil o'rgandi, qator ilmiy maqolalar va bir necha yirik monografiyalar yaratdi. Uning "O'zbek qarluklari" (1964), "O'zbek xalqining etnik tarixiga oid" (1974), "O'zbek xalqining moddiy madaniyatidan etnografik lavhalar" (1981), "Qang' davlati va qang'lilar" (1990), "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" (2001) kabi asarlari fundamental ilmiy asosga ega.

Turli ilmiy kontsentsiyalar va turlicha qarashlar mohiyatining bayonidan so'ng ta'kidlash joizki, tarix fanining asosiy ob'ekti — xalq, millatdir, uning yaratuvchilik faoliyatisiz tarixiy jarayon mazmun va ma'nosini yo'qotadi. Binobarin, tarix xalqning kelib chikishini haqqoniy yoritishga o'sha; jamiyat taraqqiyotining xar bir bosqichida xalqning asl farzandlari (daholar, arboblar, fan va madaniyat ilg'or vakillari)ning xizmatlarini to'g'ri baxolash o'sha, u haqqoniy va qiziqarli bo'ladi. Tarixning u yoki bu muammosi echimi yo'lida ishlab chiqilgan ilmiy kontsepsiyalar nafaqat tarixiy

jarayonni to'g'ri yoritishga, balki muayyan mintaqalar xalqlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, iqtisodiy va madaniy xamjixatlikka ham xizmat qilmog'i kerak.

O'zbek xalqining kelib chiqishi muammosini yoritishda kontseptsiyaga asoslanib, o'zbek etnogenezining ikki ming yillik tarixiy jarayonlarini ilmiy kuzatish mumkin bo'ldi, shu bilan birga, o'zbek xalqi nafaqat qadimgi turklardan, balki u ikki etnik qatlam — turkiy va sug'diy tilli xalqlarning qorishuvidan tashkil topganligi isbotlandi. Ushbu xulosa, o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy madaniyatida hamda hozirgi zamon o'zbeklarining jismoniy qiyofasida ham o'z ifodasini topgan. Shu o'rinda taniqli elshunos arxeolog olim S.P.Tolstovning O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi xaqida aytgan fikrini keltirish joizdir: "Hozirgi zamon O'rta Osiyo xalqlarining birontasi ham qadimgi etnosga bevosita borib taqalmaydi, aksincha, ularning shakllanishida har xil miqdorda yerli tub axoli va tevarak-atrofdan kelib qo'shilgan xalqlar o'z aksini topgan".

O'zbek xalqiining shakllanish jarayonida qatnashgan asosiy komponentlar quyidagilardir:

1. Asosiy negiz Movarounnahr, Xorazm va Toshkent vohasida va ularga tutash hududlarda qadimdan yashab kelgan turg'un turkiyzabon aholi.

2. Qorluqlar va ularning davlati.

3. Chigil va xalach qabilalari.

4. O'g'uzlar tarkibiga kirgan yag'molar.

5. G'arbiy turk xoqonligida dulu va kunshi qabilalari.

6. Bundan tashqari dug'lat, arg'u, tuxsi, az, uz va boshqa etnoslar.

7. Dulu qabila ittifoqlari tarkibidagi turkashlar.

8. O'zbek xalqining tarkibidagi yirik etnik guruhlardan biri-qang'lilar.

9. Qang'lilarga qarindosh qabila-pecheneglar.

10. O'zbek xalqining etnogenetik jarayonida faol qatnashgan etnik guruhlardan biri qipchoqlar. Ularning salmoqli qismi qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman, boshqird va boshqa turkiy xalqlarning tarkibiga ham kirib ularning elat bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynagan.

11. XIII-XIV asrlarda ro'y bergan etnik jarayon tufayli Dashti qipchoqda yashagan turkiy qabilalar bir-birlari bilan yaqinlashadilar. Natijada turk tilida so'zlovchi turk-mo'g'ul qorishmasidan tashkil topgan yangi etnos vujudga kelgan.

12. Ilk ajdodlari Mo'g'ulistonning shimoliy g'arbida, hozirgi Tuva yerida yashab tele qabila ittifoqining tarkibida bo'lgan az qabilasi.

13. VIII-IX asrlarda Sirdaryo bo'ylarida yashab, IX asr oxiri X asr boshlarida yirik davlat tuzgan o'g'uzlar.

14. Ilk o'rta asrlarda Janubiy Sibir, Yettisuv va Sirdaryo sohillarida yashagan usun, obdal, sariq, qay, kun kabi bir qator etnoslar.

Shakllangan o'zbek xalqining keyingi tarixi xorazmshohlar va mo'g'ullar istilosi bilan davom etadi. Mo'g'ul istilosi tufayli Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlar aholisi qariyb yarim asr davomida etnik tarkibini tiklay olmagan. XII asr ikkinchi yarmidan boshlab bu yerga etnik guruhlar kela boshlaydi. Bu davrda jaloyir, barlos, qavchin va arlot etnik guruhlar birinchilardan bo'lib kela boshlaydi. Shu bilan birga mo'g'ul qabilalari (Chig'atoy ulusining g'arbida yashovchilari turkiylashib, XIV asrning o'rtalarida o'z tillarini batamom unutib turkiy tilda so'zlashar edilar.

XIV-XV va undan keyingi asrlarda muhim yashovchi o'zbek aholisi turkiy etnoslarning so'g'd-tojik va boshqa xalqlar bilan aralashib, qorishib borish jarayoni borgan. Bu davrda xalq tili ko'p dialektli bo'lib, adabiy tildan birmuncha farq qilgan. Adabiy til tarkibida aynan shu asrlarda tojik va arab so'zlari ko'paygan xalqning jonli tilida uchta asosiy sheva-qarluq, qipchoq va o'g'uz dialektlari mavjud bo'lgan Amir Temur davrida Movarounnahrda Old Osiyo mamlakatlaridan bir guruh aholi (100 ming) ko'chirib keltirilgan.

XVI-XVIII asrlardagi xalqimizning etnik tarixi o'ziga xosdir. Chunki shu davrda xalqimiz «o'zbek» degan nom bilan atala boshlanadi. Bu shayboniylar sulolasi nomi bilan bog'liq edi. Shu asrlar va undan keyingi davrlarda O'zbekiston hududida rasmiy til o'zbek tili edi. Buxoro vohasida tojik tili ikkinchi til hisoblangan. O'zbek xalqi o'z qo'shinlari qardoshlari bilan etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan. Qozoqlar va qoraqalpoqlar asosiy xalq bo'lgan.

3. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan keyingi dastlabki yillarda Vatan tarixini o'rganish, o'qitish borasida katta muammo paydo bo'ldi. Bu muammoning o'zagini o'zbek davlatchiligi tarixi masalasi tashkil qilar edi. Chunki 130 yilga yaqin davom etgan chor mustamlakachiligi va Sho'rolar xukmronligi yillarida xalqimiz ko'plab qadriyatlar bilan bir katorda tarixidan xam maxrum qilingan edi. Bu yillarda yaratilgan tarix kitoblarida Vatanimiz tarixi, ayniqsa davlatchiligi tarixi tamoman soxtalashtirilib talqin qilindi.

Vatanimiz davlatchiligi ko'p ming yillik tarixga ega ekani, juda qadim zamonlardan boshlab Markaziy Osiyoda davlatchilik an'analari shakllanganligi buyuk davlatchilik shovinizm va kommunistik mafkura ta'kibi bois etarlicha o'rganilmadi. Bu masalaga doir ma'lumotlar xam xalqdan yashirib kelindi. Chunki o'zbek xalqi davlatchiligining ko'p ming yilliklarga borib etishi qizil sal'anat yulboshchilari bo'lmish rus shovinizmi manfaatlariga to'g'ri kelmas edi. Chunki slavyanlar davlatchiligi XI asrdan boshlansa-yu, ular mustamlakasi bo'lmish o'zbeklarning davlatchilik an'anasi eramizdan avvalgi ming yilliklar bilan belgilanishi albatta sharmandalik edi. Shu bois xam xalqimiz o'zining xaqqoniy tarixini o'rganishdan maxrum qilingan. Shu bilan birga Vatanimiz tarixini o'rganish uchun muhim bo'lgan g'oyat qimmatli qo'lyozma asarlar, moddiy ashyolar Moskva, Leningrad kabi shaharlarga olib ketilgan edi.

Mustaqillikdan keyingi yillarda Vatanimiz tarixini ukitish va o'rganishda etarlicha darsliklar, manbalar yuqligi bois katta muammo paydo bo'ldi. Xalqimiz tarixi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi uchun xaqqoniy tariximizni yaratish lozim edi. Sho'rolar davrida maktab programmasida O'zbekiston tarixini o'rganish uchun 3–4 soat ajratilgan bo'lib, biz asosan SSSR tarixi deb atalgan slavyan tarixini o'rganar edik. Oliy o'quv yurtlarida esa O'zbekiston tarixi deyarli o'qitilmagan. Bu davrda nashr qilingan mavjud O'zbekiston SSR tarixi deb atalgan kitoblarda esa tariximiz kommunistik mafkura an'analari asosida yoritilgan, ya'ni tariximiz ayovsiz qoralangan. Qadim ajdodlarimizning davlatchilik an'analari umuman tadqiq qilinmagan, o'rganilmagan.

Mustaqillikdan keyingi yillarda bu masala prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarida ma'ruza va nutqlarida eneg dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yildi. O'tgan davr mobaynida tarixiy an'analarimizni, qadriyatlarimizni tiklash borasida ko'plab xayrli ishlar qilindi. Xozirda bizning vatanimiz nafaqat Sharq balki umujahon

silivizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Olimlarimiz tariximizning turli davrlariga doir risolalar yozishmoqda. Biroq xaligacha bizda chuqur ilmiy asosga tayangan taxlil, muayyan masalalarda ilmiy yondashuv etishmayapti. Ilmiy tilda aytganda tariximizni o'rganishda aniq, yaxlit kontseptsiya yo'q. Xolbuki milliy uzlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Ushbu xaqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur. Shu xolatdan kelib chiqqan xolda prezidentimizning har bir asarida milliy tariximiz haqida albatta yangicha fikr va goyalar ilgari surilmoqda. Bu masala yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan 1996 yil 16 dekabrda «O'zbekiston yangi tarixini yaratish to'g'risida» gi Vazirlar Mahkamasining karori e'lon qilindi. Bu qarorga binoan O'zbekiston yangi, xaqqoniy tarixini yaratish borasida izlanishlar boshlab yuborildi. Biroq middiy davlatchilik tarixi masalasi xanuz yechilmagan muammo bo'lib qolmoqda edi. 1998 yilning iyul oyida prezident I.A.Karimov bir gurux tarixchi – olimlar bilan uchrashib, Vatanimiz tarixining eng dolzarb 2 ta masalasi davlatchilik masalasi va o'zbek xalqining etnik shakllanishi masalasini muxokama qildi. Bu uchrashuvda prezidentimiz «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» deb nomlangan ma'ruzasida juda ajoyib kontseptual ilmiy–nazariy g'oyalarni ilgari surdi. Bu uchrashuvdan keyin Vatanimiz tarixini o'rganish, xaqqoniy tariximizni yaratish borasida bir qancha chora-tadbirlar belgilab olindi.

1998 yil 24 iyulda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori chiqdi. Qarorda tarix institutining faoliyati buyicha bir qancha ko'rsatmalar va vazifalar belgilandi. «O'zbekiston tarixi» deb nomlangan ilmiy jurnal ta'sis etildi. Bu qaror e'lon qilingandan keyin tariximizni ayniqsa milliy davlatchilik tarixini o'rganish borasida xam amaliy ishlar boshlab yuborildi. Tarix instituti olimlari yetakchiligidagi o'zbek davlatchiligi tarixi kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Bu kontseptsiya «O'zbekiston tarixi» jurnalining 1999 yil 1–sonida e'lon qilindi. Vatanimiz davlatchiligi tarixi masalalariga doir ilmiy maqolalar nashr qilina boshlandi. Oliy o'quv yurtlarida Milliy davlatchilik tarixi sifatida o'qitila boshlandi. Vatanimiz tarixi xaqqoniy tarzda bayon qilingan yangi maktab darsliklari vujudga keldi. Umuman aytganda milliy davlatchilik kontseptsiyasining yaralishi ilgarigi davlatchilik tariximizni o'rganish yo'lida katta ahamiyatga ega bo'ldi. U bir dastur sifatida g'oyat katta qimmatga ega.

A D A B I Y O T L A R:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T., Sharq.1998.
2. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. -T. Sharq. 2001.
3. Mahmud Qoshg'ariy. Devoni lug'otut turk. 1-jild. –T.1963.
4. Asqarov A.A. O'zbekiston tarixi. -T.: O'qituvchi. 1994.
5. Ahmedov B.A. O'zbek ulusi. -T. Meros. 1992.
6. Ahmedov B.A. Tarixdan saboqlar. -T. O'qituvchi. 1993.
7. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar 2-jild. Hindiston tarixi. –T.1965.

2-Mavzu: O'zbek davlatchiligining taraqqiyot bosqichlari tarixini o'rganish muammolari.

Reja:

- 1. Davlatchiligimizning eng qadimgi davrlari. Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya, Davan, Kushonlar davlatlari tarixini o'rganish muammolari.**
- 2. Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar hamda Xorazmshohlar saltanati tarixini o'rganish muammolari.**
- 3. Amir Temur va temuriylar davlatchiligining tarixini o'rganish muammolari.**

1. Barcha dalili ashyolar miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlarida, aniqrog'i VIII-VII asrlarda ajdodlarimizning Vatanimiz hududlarida Xorazm va Baqtriya nomi bilan mashhur bo'lgan dastlabki davlatlarni barpo yetganidan, bu davlatlar o'ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o'tganligidan guvohlik beradi.

Xorazm davlati egallagan hududlar hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubga, ya'ni Marv (Turkmaniston), Hirot (Afg'oniston shimoli) atroflariga qadar ham yoyilgan.

Miloddan avvalgi so'nggi ming yillikning boshlariga tegishli «Amirobod madaniyati», quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o'ziga xos sun'iy sug'orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar-Qal'aliqir, Ko'zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasida davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozircha aniq emas. Rivoyatlarga ko'ra, Xorazmning qadimiy siyosiy sulolasi Siyovushiyar bo'lganligi zikr etiladi. «Avesto»da ta'kidlanishicha, Siyovarshon Kaykovusning o'g'li bo'lgan. Siyovarshon o'limidan so'ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o'ch olib, hokimiyatni egallab Xorazmda Siyovushiyar sulolasiga asos solgan.

O'zbek davlatchiligining yana bir asosi-Baqtriya podsholigidir. Uning tarkibiga hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismi, shuningdek, Sug'diyona va Marg'iyona yerlari ham kirgan. Baqtriyadagi ko'pdan-ko'p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur shahar bo'lib, mamlakatning poytaxti hisoblangan. Baqtra baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda hukmdor qal'asi alohida joylashgan.

Rim tarixchisi Kursiy Rufning guvohlik berishicha, «Baqtra daryosi nomidan shahar, viloyatning nomi kelib chiqqan». Umuman tarixiy ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, qadimgi davlatlar nomlari ko'pincha daryo, qabila, xalq yoki shaharlar nomiga qiyosan kelib chiqqan bo'ladi. «Avesto» kitobida ham Baqtriya «Eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri bo'lgan, baland bayroqli, go'zal o'lka» sifatida ta'riflangan, Bu xildagi fikr-mulohazalar Baqtriyaning o'z davrining yirik davlatlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Qashqadaryo vohasining miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oid Sangirtepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Zarafshon vodiysida Afrosiyob, Ko'ktepa singari aholi manzilgohlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu joylarda o'troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol

shug'ullanganlar. Xuddi shunday fikrni So'g'diyona hududlariga nisbatan ham aytish mumkin.

Shunday qilib, Xorazm va Baqtriya davlatlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy madaniy jarayonlar ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo'lidan ilgari lab borib, o'z davlatchilik tuzilmalarini vujudga keltirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib borganligidan guvohlik beradi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, shaharsozlik, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish qurollarining takomillashib borishi ulug' bobokalonlarimiz o'lmas dahosi, salohiyatining yorqin ifodasidir. Bular qadimgi o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

Xorazm salavkiylar davrida ham o'z mustaqilligini saqlab qoldi va yuksalib bordi. Mil.av.II asrda So'g'diyona va Shosh (Toshkent) Xorazm tasarrufiga olinadi. Bu davrda Xorazm davlati tarixiga, rivojlanish jarayoniga oid bo'lgan eng ko'p ma'lumotlar Xitoy manbalarida uchraydi. Xitoy manbalarida Xorazm Qang'a davlati degan nom bilan tilga olinadi. Aftidan, Xitoyning Xan sulolasi hukmdorlari O'rta Osiyo xalqlari hayotiga va hududning muhim jo'g'rofiy mavqei, tabiiy boyliklariga alohida qiziqish bildirib, o'z elchilarini yuborganlar hamda ular bilan yaqindan bog'lanishga harakat qilganlar. Bugina emas, hatto mil.av II asr boshlarida bu hududni qo'lga kiritish maqsadida katta qo'shin tortib bostirib kelganlar ham.

Davan yoki Parkana nomi bilan mashhur bo'lgan, ajdodlarimiz tomonidan Farg'ona vodiysida barpo etilgan yana bir davlat Vatanimiz hududidagi qadimgi davlatlardan sanalsa-da, biroq uning haqqoniy tarixi xususida hozirgacha to'la ma'lumotlar topilmagan. Xitoylik elchi Chjan Syan yozma manbalarida Farg'ona vodiysidagi davlatni Davan (ulug' Van) deb atalgan. Vaholanki, Farg'ona vodiysi ham ajdodlarimizning madaniy, o'troq hayot kechgan, o'z davlatchiligiga ega mustaqil hudud sifatida Xorazm, Baqtriya singari qadimgi davlatlar bilan tenglasha olishga hech bir shubha yo'q. Buni mil.av. II asr boshlarida tashrif buyurgan. Xitoy elchisi Chjan Syan yozib qoldirgan esdaliklar ham isbot etadi. Manbalarda aytilishicha, bu davrda Farg'onada 300 ming nafar aholi yashagan. Uning 70 dan ziyod katta-kichik shaharlari bo'lib, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan. Mamlakat poytaxti Ershi (hozirgi Andijon viloyatining Marhamat tumanida joylashgan) o'z davrining obod, ko'rkam va aholisi gavjum shaharlaridan sanalgan. Qadimgi O'zgan, Koson ham davanning eng mashhur shaharlari sirasiga kirgan. Davan hududida 10 dan ortiq yirik dehqonchilik manzilgohlari mavjud bo'lib, ularda yerli mirishkor aholi sholi, bug'doy, paxta va boshqa dehqonchilik ekinlari yetishtirish bilan shug'ullangan. Bularga Aravonsoy, Oqbo'ra, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Maylisoy, Ulug'nor, Yilg'insoy, Shahrixonsoy kabi dehqonchilik makonlarini aytish mumkin. Xitoy sayyohi vodiya uzumchilik nihoyatda rivojlanganiga, shu bilan birga undan noyob sharbat va uzoq muddat saqlanadigan, quvvati o'tkir vinolar tayyorlash yuksak darajada yo'lga qo'yilganligi alohida urg'u beradi. Davandagi ijtimoiy-siyosiy hayotning yana bir muhim jihati-bu ayollarning jamiyatda tutgan mavqeining alohidaligidadir. Chjan Syanning e'tiroficha, bu yerning erkaklari ayollarga alohida hurmat ko'rsatganlar. Boshqacha qilib aytganda, xotin-qizlarning har qanday topshirig'i erlar tomonidan bajarilishi

shart hisoblangan. Davlat hukmdori mamlakat hayotiga oid har qanday ichki va tashqi masalalarni hal etishda Oqsoqollar kengashiga, ularning maslahatlari va yo'l-yo'riqlariga suyanagan. Ayniqsa, urush va tinchlik, elchilik aloqalari masalalasida Oqsoqollardan iborat oliy kengash alohida vakolatlarga ega bo'lgan. Hukmdor buni e'tirof etishga majbur bo'lgan.

Xitoy Farg'ona davlatining boy-badavlat turmushiga, uning boyliklariga ko'z olaytirib, unga qarshi bir necha bor katta qo'shin tortib bostirib kelgan. Chunonchi, mil.av. II asr oxirlarida (104 yilda) va milodiy 1 asrning 80-yillarida xitoyliklar Davan davlatini o'zlariga bo'ysindirish uchun u bilan shiddatli urush olib borganlar. Davanliklar o'z qo'shnilari-Xorazm va Kushonlarning harbiy yordami bilan yurt mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladilar. O'rta Osiyo hududlarini kuch bilan egallash mumkin emasligini tushungan Xitoy tomoni shundan so'ng Davan davlati bilan shartnoma tuzadi. Bunga ko'ra ikkala davlat o'rtasida diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yish, jumladan Farg'onaning uchqur arg'umoqlarini xitoyga sotishga kelishib olinadi. Farg'ona hududi O'rta Osiyo ijtimoiy siyosiy hayotida sodir etilgan keyingi muhim o'zgarishlar jarayonida ham o'zining nisbiy mustaqilligini bir muncha saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

Mil.av. II asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi turkiy qavmlar qo'shnisi xunlar tazyiqiga uchrab, ularning siquviga bardosh berolmay G'arbga tomon siljiydilar. Xitoy manbalarida ta'kidlanganidek, yuyechjilar beshta siyosiy xonadonga mansub edilar. Go'yshuan, (Kushon). Xyumi, Shuanmi, Xise, Xuanmi. Ularning har biri qariyb yuz yilgacha alohida-alohida siyosiy kuch hokimlik bo'lib, yagona hukmdorga bo'ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Milodning I asrida Kushonlar xonadoni boshlig'i Kujula Kadfiz (Kioszyukyu) barcha yuyechji qabilalarini birlashtiradi va butun Baqtriyada siyosiy hokimiyatni egallaydi.

Kujula Kadfiz qo'shni hududlarga yurish uyushtirib, So'g'diyona, Marg'iyona, Hindistonning Shimoliy G'arbiy qismini zabt etadi. Kujula Kadfiz keyinchalik Amudaryo bo'ylari, Qobul va Qandahor hududlarini ham egallaydi. Bu davrda mamlakat poytaxti Dalvarzintepa (Hozirgi Surxondaryo viloyatida) shahri bo'lgan. Shu tariqa, Kushonlar sulolasi davrida O'zbek davlatchiligi salatanatlik bosqichiga ko'tariladi.

Kushon hukmdorlari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, bunda bu davlatga asos solgan Kujula Kadfiz (milodning I asri boshlari), uning o'g'li Vima Kadfiz (Milodning I asri o'rtalari), Kanishka (78-123 y.y.) va ularning avlodlari-Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva, Kanishka III, Vasudeva II nomlarini tilga olib o'tmoq joiz bo'ladi. Kadfiz I davrida zarb etilgan tangalarda «Kujula Kadfiz Yabg'u» degan so'zlar uchraydi. Uning o'g'li Vima Kadfiz davri ham muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrga kelib Shimoliy Hindistonning bir qator muhim hududlari egallanadi. Vima Kadfiz mamlakatda pul islohoti o'tkazib, vazni 8 gr og'irlikdagi oltin tangalarni zarb qildirib muomilaga chiqartiradi. Bu esa xalqaro savdoda davlat obro'sining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu vaqtda Rim imperiyasi bilan savdo-sotiq aloqalari kuchayadi. Kushonlar mavqeining kuchayishi Kanishka davriga to'g'ri keladi. Bu paytgacha kelib Hindistonning Peshovor, Panjop, Kashmir va boshqa

markaziy hududlari, shuningdek, Sharqiy Turkistonning ancha qismi saltant tarkibiga kiritiladi. Bu davrda mamlakat poytaxti ham Peshovorga ko'chirilgan. Usta siyosatchi, yetuk sarkarda bo'lgan Kanishka mamlakat ichki hayotida muhim ijtimoiy siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirish barobarida tashqi siyosatda ham g'oyatda uddaburonlik bilan faoliyat yuritadi. Uning din sohasida o'tkazgan siyosati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Garchand uning davrida Budda dini davlatning rasmiy dini darajasiga ko'tarilsada, biroq mamlakatning turli hududlarida mahalliy aholi oldindan e'tiqod qilib kelgan boshqa dinlar erkinligi va daxlsizligi saqlanib qoldi. Hatto zarb etilgan oltin va kumush tanga pullarda budda xudosi bilan bir qatorda mahalliy xalqlar e'tiqod qo'yib kelgan xudolar-Anaxita, Mitra, Veretragna, Vaxsh va boshqalarning ham tasvirlari tushirilganligi bunga yorqin dalildir. Bu davrda zarb etilgan tangalar avvalgidek yunon tilida emas, balki mahalliy Kushon-Baqtriy tilida chiqarilganligi alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday uzoqni ko'zlab oqilona yuritilgan siyosat turli aholi qavmlari, ijtimoiy guruhlar o'rtasida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Biroq Kanishkadan so'ng hokimiyatga kelgan Vasishka, Xuvishka, Vasudevalar davriga kelib Kushonlar sulolasi bir qator ob'yektiv va sub'yektiv sabablar orqasida asta-sekin inqirozga uchray boshlagan. Ayniqsa, III asr o'rtalariga kelib qo'shni davlat-Parfiya o'rnida yangidan vujudga kelib, tobora kuchayib borgan Eron Sosoniylari hukmdorlarining to'xtovsiz olib borgan urush harakatlari natijasida Kushonlar mavqei zaiflashib, hududlari kichrayib bordi. Janubda Hind yerlarining Kushonlar tasarrufidan mustaqil bo'lib ajralib chiqish jarayoni kuchaydi. Keyinchalik Xorazm, So'g'diyona sarhadlari ham o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritadi. Buning oqibatida Kushonlar sulolasi oxir-oqibatda haloqatga uchradi.

Kushonlar sulolasining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo), unga tutash Xalchayon (Denovda), Zartepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom (Termiz atroflari) va boshqalar Kushonlarning eng rivoj topgan savdo-sotiq, hunarmandchilik sohalar o'sgan gavjum shaharlari hisoblangan. O'lkamizda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati nihoyatda taraqqiy etgan, ko'plab sug'orish inshootlari barpo etilgan. Surxondaryo vohasida Eski Angor, Zang, Sug'ddagi Darg'on kanallari shular jumlasidandir. Vatanimiz hududida shaharsozlik, me'morchilik xaykaltaroshlik, kulolchilik singari hunarmandchilik turlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Buni ko'xna Tuproq qal'a, Ayritom, Termiz, Axsikent shaharlari o'rnida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

2. Movarounnahrda Somoniylar sulolasi hukmronligining yuzaga kelish jarayoni ham IX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bunda ham xalifa Ma'mun o'ziga sodiq xizmat qilgan mahalliy hukmdorlardan Somonxudot avlodlari (uning nabiralari)ga Movarounnahr hududlarini boshqarish huquqini topshiradi. Chunonchi, Asad ibn Somon o'g'illaridan-Nuh Samarqandga, Ahmad Farg'onaga, Yah'yo Shosh va Ustrushonaga, Ilyos Chog'aniyon va Hirotga hokimlik qiladilar.

IX asr o'rtalariga kelib Ahmad va uning katta o'g'li Nasr Somoniylar Movarounnahrning ko'pchilik hududlarini birlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Nasr Somoniy (856-888) davrida Movarounnahr mavqei yanada kuchayib bordi. Xurosonda Tohiriylar sulolasi ag'darilgach (873 y), uning tarkibiga kirgan Buxoro

yerlari Somoniylar tasarrufiga olinadi. Nasr ukasi Ismoilni Buxoroga noib etib tayinlaydi (874 y) va Somoniylar hukmronligi deyarli Movarounnahrning barcha hududlariga yoyiladi. Ammo, ko'p o'tmay Ismoil o'z hokimiyatini kuchayтира borgach, u o'zining vassallik mavqeini tan olmay, Nasr hokimiyati xazinasiga to'laydigan yillik daromad miqdorini keskin kamaytiradi. Buning natijasida aka-ukalar o'rtasida uzoq muddatli o'zaro kurash boshlanadi. Oqibatda 888 yilda ular o'rtasida katta urush bo'lib unda Ismoil g'olib chiqadi va hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Akasi Nasr vafotidan so'ng (892 y) Ismoil Somoniy Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Shu tariqa, o'zbek davlatchiligi qayta tiklanadi va yuksalib boradi. Mamlakat aholisining mutloq ko'pchiligi turkiy qavmlardan iborat bo'lib, davlat ishlarini yuritishda turkiy qo'shinlar va lashkarboshilarning mavqei yuqori bo'lgan.

Ismoilning 893 yilda Sharqdagi turkiy qabilalarga qarshi qilgan muvaffaqiyatli yurishi, Tarozni egallab, katta o'lja, asirlar bilan qaytishi ham Somoniylar qudrati yuksakligidan yaqqol dalolat beradi. Ismoil Somoniy qudratining o'sib borishidan cho'chigan va uni zaiflashtirishni ko'zlagan Bag'dod xalifasi Mu'tazit (892-902) Xurosondagi Safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqardi va uni Ismoilga qarshi gij-gijlaydi. Bu esa 900 yilda ular o'rtasida katta urushga sabab bo'ladi. Urush natijasi Ismoil Somoniy foydasiga xal bo'lib, buning oqibatida Xuroson yerlari Somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Xalifalikning esa bu yerdagi ta'siri keskin pasayadi. Ismoil Somoniy uzoq yillik davlatchiligimiz tajribasiga suyanib, markaziy boshqaruv tizimini va shunga muvofiq keladigan mahalliy idora organlarini vujudga keltiradi. Bu tizim uning o'g'li Nasr II davrida (914-943) davrida ham takomillashib bordi.

Bunga ko'ra davlat boshqaruvi oliy dargoh va devonlar (vazirliklar) ga bo'linadi. Bunda eng asosiy siyosiy-ma'muriy va xo'jalik boshqaruvi vazir devoni tasarrufida bo'lgan. Boshqa devonlar esa unga bo'ysungan.

Markaziy Osiyoning o'rta asrlar tarixida muhim o'rin tutgan va xiyla uzoq davr hukm surgan (X-XII asrlar) Qoraxoniylar sulolasi to'g'risida so'z yuritish ekanmiz, bunda shu narsani chuqurroq anglamoq joizki, hozirgi Markaziy Osiyo mintaqasining Yettisuv va Qoshg'ar qismida yangi bir siyosiy sulola kuchayib bordi. Bular Turkiy qabilalar elatlar orasidan yetishib chiqqan Qoraxoniylardir. Mintaqaning sharqiy qismida yashagan bu elatlar Movarounnahrda xalqlar bilan doimo yonma-yon yashab, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hamkorlik va aloqalarda bo'lib birgalashib tarix yaratganlar. Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni tezlashuviga munosib ta'sir ko'rsatganlar.

Bu davlatning tayanch negizining yaratilishida ayniqsa, qorluq, chigil va yag'mo elatlarining roli va ta'siri katta bo'lgan. Mazkur davlatga asos solgan siymo Satuq Abdulkarim Bug'roxon (Qoraxon) yag'molar qavmiga mansub bo'lgan. Qoraxon so'zining lug'aviy ma'nosi esa turkiy qabilalalarda «Ulug'», «Buyuk» degan tushunchani anglatgan.

Bu davlatning qudrati yuksalib u tez orada katta hududlarni o'z qo'l ostiga kirita boradi. Uning poytaxti Sharqiy Turkistonning Bolasog'un shahri bo'lgan. Abdulkarim

Bug'roxon vafotidan keyin (955 y) uning vorislari davrida Markaziy Tyanshan va Yettisuv o'lkalari egallandi. Endilikda Qoraxoniylar Somoniylar hukmronlik qilayotgan Movarounnahr yerlarini butunlay egallashga kirishdilar. Bu davrda Somoniylar sulolasi chuqur ichki ziddichtlar girdobiga tushib qolgan edi. Mahalliy hukmdorlar va oliy ruhoniylar tabaqasi orasida ham somoniylar siyosatidan norozilik kuchaygan edi. Mahalliy hukmdorlar hayrixohligidan foydalangan Qoraxoniylar sulolasining hukmdorlari-Xasan va Nasr Bug'raxonlar yetakchiligidagi qo'shin somoniylar qarshiligini qiyinchiliksiz yengib, ikki bor (992-999 yillarda) poytaxt Buxoroni egallaydi. Oqibatda butun Movarounnahr hududlari Qoraxoniylar tasarrufiga o'tadi. Bu voqea XI asr boshlarida sodir bo'ladi. Bu jarayonni xalq hokimiyat tepasiga bir sulola o'rniga ikkinchi bir sulolaning kelishi qabilida e'tirof etadi. Shu tariqa, Qoraxoniylar hukmronligi Amudaryogacha bo'lgan katta hududlarga yoyiladi. 1041 yilga kelib qoraxoniylar hokimiyati ikkiga: markazi Buxoro bo'lgan g'arbiy xonlikka va markazi Bolasog'un bulgan sharqiy xonlikka bo'linib ketadi. Keyingi xonlik tarkibiga Talas, Isfijob, Shosh, Sharqiy Farg'ona, Yettisuv va Qoshg'ar yerlari kirgan.

Xususan Saljuqiylarning so'nggi podshohi Sulton Sanjar (1118-1157) Qoraxoniylarning Movarounnahrdagi hukmdori Arslonxon (1102-1130) ning zaiflashib qolganligidanva mahalliy ruhoniylar fitnasidan foydalanib, Samarqand va uning atrofini bosib oladi. Shundan so'ng Qoraxoniylar sulolasiga mansub mahalliy xonlar amalda Sulton Sanjarga tobe bo'lib qoladilar. Biroq ko'p o'tmay bu hududlar yangidan sharqdan bostirib kelgan Qoraxitoylar ta'siriga tushib qoladi. Faqat 1011 yilga kelib, ya'ni so'nggi Xorazmshoh-Alouddin Muhammad (1200-1220) davrida Qoraxoniylarning Movarounnahrdagi rasmiy boshqaruvi butunlay barham topadi.

Xorazm mustaqilligini ta'minlash, uning sarhadlarini kengaytirishda Qutbidin Muhammadning o'g'li Jaloliddin Otsizning (1127-1156) roli alohidadir. Negaki u Qoraxniylar kuchsizligidan va Saljuqiylar zaifligidan foydalanib o'z qudratini yuksaltira bordi. Uning 1141 yilda oltin tangalar zarb ettirib, muomilaga chikarilishi ham Xorazm mustaqilligini muhim belgisi bo'lgan.

Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi ravnaqi, hududlarning benihoya kengayib borishida Alouddin Takashning o'rni va roli katta bo'lgan. Uning hukmronlik davrida (1172-1200) Xorazm vohasida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Yangidan qad rostlagan o'nlab shaharlarning obodonlashuvidan tashqari ularning savdo-sotiq hunarmandchilik karvon savdosi bobidagi dovrug'i yanada ortdi. Qishloq xo'jaligi ziroatchilik tarmoqlar rivojlandi. Ko'plab kanallar suv inshootlari barpo etildi. Bunday tarzidagi ijobiy jarayonlar Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) davrida ham davom ettirildi. Ayni zamonda o'ziga xos markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi tizimi vujudga keltirib takomillashtirib borildi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotini mustahkamlash, uning ichki taraqqiyotini ta'minlash hamda izchil tashqi siyosat olib borishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Anushteginlarning davlat boshqaruvi ham ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan.

Takash vafotidan so'ng davlat hukmdori bo'lgan Alouddin Muhammad Xorazmshoh davrida ham mamlakat hududlari kengayishda davom etadi. Bu vaqtga

kelib Eron, Ozarbayjon, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlarga bo'ysundirilgan edi. Uning tarkibiga 400 dan ziyod shaharlar kirardi. Orol dan Hind okeanigacha, Sharqiy Turkistondan Iroqqacha bo'lgan hududdagi xalqlar taqdiri Xorazmda hal etilardi. Xorazmshoh Bog'dod xalifaligini qo'lga kiritish uchun ham intilgan bu esa butun musulmon olamining unga nisbatan qaxri g'azabiga sabab bo'lgan. Muhammad Xorazmshoh 1211 yilda Qoraxitoylarni uzil-kesil quvib Xorazm dovrug'ini ko'targanidan so'ng, u o'ziga ortiqcha bino qo'yib o'zini «Iskandari Soniy», «Ollohning yerdagi soyasi» deb ulug'lashni buyuradi.

Qo'shni Xorazmshohlar davlatida kechayotgan bu xildagi chuqur tanazzullik holatlaridan to'la xabardor bo'lgan undagi barcha jarayonlarni o'zining maxsus josuslik mahkamasi orqali sinchikovlik bilan kuzatib turgan Sharqdagi boshqa bir qudratli Mo'g'ul davlati hukmdori Chingizxon esa katta harbiy tayyorgarlik ko'rib tez orada Movarounnahr sarhadlari tomon istilochilik urushlarini boshlashga chog'lanayotgandi. Darhaqiqat XIII asrning birinchi choragida amalga oshirilgan mug'ul-tatar galalarining shavqatsiz bosqini nafaqat Xorazmshohlar davlati tarixida, balki shu bilan birga unda yashagan barcha ulug' ajdodlarimiz qismatida ham misilsiz fojia bo'ldi.

3. Amir Temur Vatanimiz tarixida, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida beqiyos xizmat ko'rsatgan shaxs. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda sifatida e'tirof etilgan yorqin siymodir.

Temur Tarag'aybek o'g'li siyosiy kurash maydoniga kirib kelgan XIV asrning 60-yillari mug'ullarning Chig'atoy ulusida bir yarim asrlik hukmronligi davom etayotgan, ularning mahalliy xalqlarga zug'umi tufayli tushkunlik, parokandalik jarayoni yuz berayotgan edi.

Temurbek uddaburonlik bilan o'ziga xos taktika qo'llab o'zining bosh orzu-maqсадlaridan voz kechmagan holda, vaziyat taqozosi bilan, vaqtdan yutish, ishonchli kuch topish uchun vaqtincha 1361 yilda Tug'luq Temur xizmatiga kiradi. Biroq bir yil muddat o'tar-o'tmay, Balx hokimi Amir Xusayn bilan do'stlashib u bilan birgalikda mug'ullardan Ona yurtini ozod qilishga kirishadi va 1362-1364 yillarda mug'ul qo'shinlariga bir necha marta zarba beradi. Tug'luq Temurning o'g'li Ilyosxo'ja 1365 yil bahorida Movarounnahr ga yurish qiladi. Chinoz atrofida, Sirdaryo bo'yidagi (Loy jangi) da Amir Temur va Amir Xusayn qo'shinining Ilyosxo'ja boshliq mug'ul qo'shinidan yengilishi Amir Temur uchun juda katta saboq bo'ldi. Vaziyat taqozosi bilan Amir Temur Amir Xusayn o'rnashib olgan Balxga 1370 yilning bahorida qo'shin tortib bordi va uni mahv etdi. Shundan so'ng Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi. Samarqand mamlakat poytaxtiga aylandi. Endilikda yurtini boshqarish jilovini qo'lga kiritgan Amir Temur oldida hali g'oyatda katta, murakkab vazifalar ko'ndalang bo'lib turardi. Eng asosiysi mamlakat hududlarini birlashtirish yagona markazlashgan davlat tuzishdan iborat bosh vazifani hal etish kerak edi. Buningsiz mamlakat taraqqiyotini olg'a bostirish, uning dovrug'ini jahon miqyosiga ko'tarish mumkin emasdi.

Amir Temur qudratli saltanatni vujudga keltirar ekan uni omilkorlik bilan idora qilish boshqaruv tizimini yanada tkomillashtirib borishga ham katta ahamiyat berdi.

U o'zbek davlatchiligining Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davrida tarkib topib rivojlanib borgan tizimi, tartib qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy davrning talab, ehtiyojlariga moslab yanada takomillashtirdi, ularga yangicha ruh, mazmun va sayqal berdi.

Uning davrida boshqaruv ikki idoradan, ya'ni dargoh va vazirliklardan iborat bo'lgan. Dargoh tepasida oliy hukmdorning o'zi turgan. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik masalalar uning ko'rsatmasi bilan hal etilgan.

Dargoh faoliyatini boshqarish uning vazirliklari mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechayotgan jarayonlar bilan bog'liq ishlar oliy devon zimmasida bo'lgan. Oliy devonda har kuni 4 vazir, ya'ni ijroiya idoralaridan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo'lib o'ziga xos ravishda hisob berib turganlar.

Mamlakatda tez-tez sodir bo'ladigan o'zaro ichki urushlarga qaramasdan XV asrda ham Movarounnahr va Xurosonning shahar va qishloqlarida birmuncha obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Mavjud sug'orish tarmoqlarini ta'minlash va kengaytirish hamda yangi ariqlar qazilib, obodonlashtirish ishlariga ma'lum darajada ahamiyat beradi. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tartibga solinadi. Dashtlarga suv chiqarilib, yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi.

XV asrda temuriylar davlati Xitoy, Hindiston, Tibet va boshqa qo'shni mamlakatlar bilan savdo aloqalari olib boradi. Shunisi ham borki, XV asrda xususan uning birinchi yarmida mamlakatning iqtisodiy jihatdan ravnaq topishi, ayniqsa hunarmandchilik va ichki savdoning rivojlanishi ma'lum darajada shu davrda o'tkazilgan pul islohoti bilan bog'liq edi. Amir Temur va uning vafotidan keyin Temuriy shahzodalar o'rtasida boshlangan o'zaro kurashlar va harbiy yurishlar mamlakatning ichki hayotiga salbiy ta'sir etsada, biroq Shohruh, Ulug'bek, Abdusaid, Sulton Husayn hukmronlik qilgan davrlarda mamlakatda ma'lum darajada qaror topgan osoyishtalik tufayli ilgaridan davom etib kelayotgan an'analar asosida ilm-fan va madaniyat yanada jonlanadi.

XV asrda Samarqand va Hirotida me'morchilik, naqqoshlik, tasviriy san'at, adabiyot yuksak darajada taraqqiy etadi. Temuriy hukmdorlar orasida ayniqsa Ulug'bek bobosi Temur kabi mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat beradi. U hukmdorlik qilgan davrlarda birqancha masjid madrasa, hammom, sardoba va karvonsaroylar quriladi. Ulug'bek ayniqsa Samarqandni obod qilishga katta e'tibor beradi. Uning davrida Samarqand shahrining Registon maydoni shakllanadi. 210 gumbazli Ko'kaldosh Jome masjidi qad ko'taradi. Bunday imoratlardan faqat Ulug'bek madrasasigina saqlanib qolgan. XV asrning madaniy hayotida istirohat bog'lari tashkil etish san'ati ham diqqatga sazovordir. Samarqand, Buxoro, Marv, Hirot kabi yirik shaharlar atrofida go'zal oromgohlar barpo etiladi.

«Tuzuki Temuriy» (Temur tuzuklari), «Malfizoti Temuriy» (Temuriyning aytganlari) va «Voqeoti Temuriy» (Temurning boshidan kechirganlari) nomlari bilan atalmish bu asarlar e'tiborga molik tarixiy manbaalar jumlasidandir. «Temur tuzuklari» Amir Temurning tarixi uning zamonida, aniqrog'i 1342-1405 yillar orasida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli Temur va temuriylar davlati hamda,

qo'shinining tuzilishi, o'sha yillarda Temur davlatining qo'shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlari haqida hikoya qiladi. Davlat asosini 12 toifa:

1. Sayidlar, ulamo, mashoyiq, fozil kishilar;
2. Ishbilarmon, donishmand odamlar;
3. Xudojo'y, tarkidunyo qilgan kishilar;
4. No'yonlar, amirlar, mingboshilar;
5. Sipoh va raiyat;
6. Maxsus ishonchli kishilar;
7. Vazirlar, sarkotiblar;
8. Hakimlar, tabiblar, munajjimlar;
9. Tavsir va hadis olimlari;
10. Ahli hunar san'atchilar;
11. Sufiyar;
12. Sayyohlar va savdogarlarni tashkil etadi.

Asarda ularning haq-huquqlari, oylik maoshi ham aniq ko'rsatilgan. Masalan, oddiy sipohiy mingan otning bahosi barobarida, o'nboshi qaramog'idagi askarga nisbatan ikki barobar ko'p, yuzboshi o'n boshidan ikki barobar ko'p maosh olishgan.

«Tuzuk»larda vazirlar, amirlar haqida ham muhim ma'lumotlar ham keltirilgan. Masalan, Temur davlatini yetti vazir:

1. Mamlakat va raiyat ishlari buyicha vazir:
2. Vaziri sipoh, ya'ni harbiy ishlar bo'yicha vazir:
3. Egasiz qolgan mol-mulklarni tasarruf etish vaziri:
4. Saltanatning kirim-chiqim ishlarini boshqaruvchi vazir, ya'ni moliya ishlari vaziri:
5. 6.7. Sarhad viloyatlarining ishlarini nazorat etib turuvchi vazirlar.

«Temur tuzuklari»ni butun jahonning ko'pgina mamlakatlarida, masalan, Rossiya, Angliya, Fransiya, AQSH, Daniya, Hindiston, Turkiya, Misr kutubxonalaridan topsa bo'ladi. O'z o'zidan ma'lumki, qaysi bir asar qimmatli, amalda zarur bo'lsa, undan ko'proq nusxa ko'chirilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: O'zbekiston, 1998.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.:Sharq, 2000.
3. Buniyatrov Z.M. Gosudarstvo Xorezmshaxov Anushteginidov.-M.: Nauka, 1986.
4. Vamberi Herman. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi.-T.: Adabiyot va san'at, 1990.
5. Jaloliddin Mirzo. Termiz Saljuqiylar davrida. O'zbekiston tarixi.-2001.-№1.-B 20-25
6. Karayev O. Gosudarstvo Karaxanidov.-Frunze: 1983.
7. Nabiyeu A. Mustaqillik uchun kurash yohud parchalangan Turkiston tarixi.-T.: 1998.
8. Narshahiy. Buxoro tarixi. -T.: Kamalak, 1991.
9. Shoniyozov K.SH. Qang' davlati va qang'lilar.-T.: Fan,1990.
10. O'zbekiston tarixi. 1-qism.-T.: O'qituvchi, 1994.

11. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. Toshkent: 1996 yil.
12. Temur tuzuklari. Toshkent: 1991 yil.
13. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent: 1992 yil.

3. Mavzu. Rossiya tomonidan O`pra Osiyoni zabt etilishi tarixini o`rganish muammolari.

Reja:

- 1. Turkistonning xonliklarga bo'linishi tarixini o`rganish muammolari.**
- 2. Rossiyaning O`rta Osiyoga qiziqishi tarixi.**
- 3. Rossiya tomonidan O`rta Osiyoning bosib olinishi tarixini o`rganish muammolari.**
- 4. Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati.**

1. XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan Temuriylar saltanatiga Dashti qipchoq tomondagi o'zbeklar hukmdori Muhammad Shohbaxt Shayboniy hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500-1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yilda Hisor viloyatini, 1504-1505 yillarda Urganchni, 1506-1507 yillarda Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Mashhad va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Farg'ona va Sirdaryo yerlari ham Muhammad Shayboniyxonga qaram bo'lib qoldi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasi hukmronligi qaror topdi. Shayboniyxon janubda Eron shohi Ismoilshoh bilan to'qnashdi. 1510 yilda Marv yaqinida bo'lgan jangda Shayboniyxon qo'shinlari yengildi, xonning o'zi ham xalok bo'ldi. Taxtga Ko'chkunchixon (1510-1530) chiqdi.

Xorazmda Ismoilshoh hukmronligiga, uning shialik diniy mazhabiga qarshi harakat boshlandi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Xisamiddin yetakchilik qildi. Ular Shayboniylar avlodidan bo'lgan Berka sultonning o'g'li Elbarsxonga murojaat qilib, xon bo'lishini taklif qildilar. Elbarsxon 1511 yilda qo'shin bilan kelib Vazir, Urganch, Xiva, Xazoraspni Ismoilshoh qo'shinlaridan tozaladi. Shunday qilib, 1511 yilda mustaqil Xiva xonligi tashkil topdi, Elbarsxon uning birinchi xoni bo'ldi. Xivada Shayboniylar sulolasi hukmronligi 1770 yilgacha davom etdi. Xiva xonligi poytaxti Urganch edi. Arabxon (1602-1621) davrida poytaxt Xivaga ko'chirildi. Xiva xonligi tasarrufiga Amudaryo quyi oqimidagi vohalar, Mang'ishloq, Dahiston (Mashhad) va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirardi.

Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g'alayonlar bo'lar, aholi boshi oqqan tomonga ketardi. Shunday vaziyatda xonlikdagi o'zbek qabilalaridan qo'ng'iroq urug'ining boshlig'i Muhammad Amin Inoq 1770 yilda hokimiyatni qo'lga oldi va Ayva xonligida yangi sulola-qo'ng'iroq sulolasiga asos soldi va bu sulola 1920 yilgacha hukm surdi. Muhammad Amin Inoq turkmanlar mang'itini bostirdi, Buxoro hukmdorining hujumini daf etdi va Xiva xonligidagi viloyat hokimlarini markaziy hokimiyatga bo'ysundirdi.

Movarounnahrda 100 yilgacha davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo'lmadi, qirg'inbarot urushlar, o'zaro ichki kurashlar davom etdi. 1512 yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo'lib kelgan Ubaydulla Sulton 1533 yilda Shayboniylar sulolasining oliy hukmdori etib ko'tarildi. Ubaydulla sulton Samarqanddagi Ko'chkinchixon avlodlari qarshiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqarardi. Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqei ham

siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi va Movarounnahrning siyosiy-ma'muriy markaziga aylantirildi. Abdullaxon II davrida (1557-1561 yillarda amakisi Pirmuhammad, 1561-1583 yillarda otasi Iskandarxon oliy hukmdor deb e'lon qilingan bo'lsada amalda hukmdor Abdullaxon II edi) 1557 yildan boshlab poytaxt rasman Buxoro bo'lib qoladi va bu sana tarixga Buxoro xonligi tashkil topgan yil bo'lib kirdi.

Abdullaxon II siyosiy tarqoqlikka qarshi uzoq yillar urush olib borib, 1573 yilda Farg'onani, 1574 yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlarini, 1578 yilda Samarqandni, 1582 yilda Toshkent, Shohruhiya, Ohangaron va Sayramni, 1583 yilda Balxni, 1584 yilda Badaxshonni, 1588 yilda Hirotni, 1595 yilda Xorazmni zabt etib, mintaqani birlashtirish ishini uddaladi, Buxoro xonligini kuchli va markazlashgan davlatga aylantirdi. Biroq, ichki nizo, adovatni bartaraf etolmadi. G'animlar Abdullaxonga qarshi uning o'g'li Abdulmo'minni qayraydilar. Shu tariqa, uyushtirilgan saroy fitnasi natijasida 1598 yilda Abdullaxon o'ldiriladi. Abdullaxon o'rniga taxtga ko'tarilgan Abdulmo'min 6 oycha hukmdor bo'ldi. Taxtga chiqqan so'nggi Shayboniy PirMuhammad (1599-1601) ham ichki urushlarning birida halok bo'ladi. Shayboniylar sulolasi barham topdi.

1601 yildan e'tiboran Buxoro xonligida hokimiyat ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi qo'lga o'tadi. 150 yilcha (1601-1753) hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik bo'lmadi. Inqiroz o'zining yuqori pallasiga chiqqan XVII asrning 40-yillarida Eron shohi Nodirshoh Buxoro xonligiga yurish qilib uni o'ziga bo'ysundiradi.

Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo'lgan mang'it urug'ining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda ichkilikbozlik va maishatbozlikka berilib ketgan Abdulfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) elon qilingan uning o'g'illari: Abdulmo'min va Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Muhammad Rahim 1753 yilda o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Amirlikda hokimiyat 1920 yilgacha mang'itlar sulolasi qo'lida bo'ldi.

1710 yilda Qo'qon atrofida yashab turgan o'zbek qabilalaridan biri-minglar o'z yetakchisi Shoxruhbiyni hokimiyat tepasiga ko'taradilar. Shu tariqa, Qo'qon xonligi tashkil topadi, o'zaro ichki kurashlar botqog'iga botib qolgan Buxoro xoni Ubaydullaxon o'ziga qarashli hududning ajralib chiqib, alohida davlat tuzishiga qarshilik ko'rsatolmadi. Qo'qon xonligida ming qabilasi sulolalari 1875 yilgacha hukmronlik qildi.

Xonliklar tarixi iqtisodiy va madaniyat xayotning bir tekisda bormaganligidan, ayrim davrlarda siljish kuzatilsada, xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurash avj olgan yillarda esa tanazzullik xollari yuz berganligidan guvohlik beradi.

Uch xonlik ham moddiy-ma'naviy yordamga g'oyat muxtoj bo'lib turganlari xolda o'zaro nizolarni bartaraf qila olmadilar. Kelishmovchiliklar ba'zi qon to'kishlarga olib kelar, xazinani qaxshatardi. Rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganib ularning yutuqlaridan ijodiy foydalanishga mutlaqo e'tibor berilmadi. Shu tufayli xonliklarning ijtimoiy xayoti sokin bo'lib jaxon taraqqiyotidan qariyb uzilib qolgan edi. O'zbek xonliklarining hukmdorlari Rus davlati tajovuzlariga e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik qildi. O'zaro urushlar girdobiga botib, katta kuchlarini behud qurbon qildi, mamlakat boyligini besamar ishlarga sovurdi. Vaqtini ayshi-ishrat, kayfu safoda o'tkazdi. O'zbek

xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, iqtisodiy va harbiy nochorlik qo'shni mamlakatlarni o'z tasarrufiga kiritib olish siyosatini jadallashtirayotgan chor Rossiyasiga qo'l keldi. Xonliklardagi parokandalik, o'zaro nizo va urushlar, oxir-oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylanishiga olib keldi.

2. XIX asr ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyo xonliklaridagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy axvol tang darajada bo'lganligi bu paytda jaxondagi eng agressiv davlatlar qatoriga kirgan, Evropa davlatlariga nisbatan iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolayotgan Rossiyaning O'rta Osiyoni o'ziga buysundirish niyatini ro'yobga chiqarishni tezlashtirdi. Bu niyat Rossiya imperatori Pyotr I (1672-1725) davrida tuzilgan bo'lib, u Xiva xonligini bo'ysundirish uchun xatto 1717 yilda Bekovich-CHerkasskiy boshchiligida O'rta Osiyoga xarbiy ekspeditsiya uyushtirgan edi. Lekin bu xarakat, undan keyingi boshqa xarbiy xarakatlar: jumladan, 1839-1840 yillarda Perovski boshchiligidagi xarbiy yurish xam muvaffaqiyatsizlikka uchradi. XVIII-XIX asrning birinchi yarmi davomida rus xukumatini Pyotr I orzularini amalga oshirish yo'lida uning vasiyatlarini bajarib, Qipchoq dashtlarini o'ziga buysundirdi va u yerda xarbiy istexkomlar bunyod etdi. Bu davrda Rossiya uchun sanoatni rivojlantirish, uni xom-ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarilgan maxsulotni sotish uchun yangi bozorlar izlash kechiktirilmas vazifa bulib qoldi.

Rossiyaning agressiv tashqi siyosati davomida uning kelajakda imperiyani kengaytirish uchun Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eronga uyushtiradigan xarbiy yurishida, janubdagi dengizlar, ular orqali okeanga chiqishida O'rta Osiyo platsdarm vazifasini bajarishi kerak edi. Yana shuni ko'rsatib o'tmoq joizki, chorizmning Turkistonga bo'lgan qiziqishi bu o'lkadagi katta er osti boyliklarini o'zlashtirishga intilish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoda Rossiya va Angliya manfaatlari to'qnashdi. Bu xol Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish rejasini ishlab chiqish va xarbiy yurishlarni tezlashtirishiga sabab bo'ldi.

Shu sabablarga ko'ra chor Rossiyasi o'zining tish-tirnog'igacha qurollangan ko'shinlari bilan Turkiston xalqlarini buysundirish va jonajon Vatanimizni bosib olib, unga egalik qilish maqsadida xarbiy yurishlarini boshladi.

3. Zamonaviy qurollar bilan to'la ta'minlangan 2850 kishilik rus qo'shini bir yil oldin mag'lubiyatga uchragan general Perovski boshchiligida 1853 yil iyul oyida Oqmachit qal'asiga xujum qildi. Oddiy qurollar bilan qurollangan 400ga yaqin qal'a ximoyachilari 20 kun davomida dushman xujumini qaytarib, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik timsoli bulib tarixga kirdilar.

1853-1856 yillardagi Qrim urushi sababli Rossiya O'rta Osiyodagi xarbiy xarakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi. U Qo'qon xonligidagi faol xarakatini 1860 yil yozidagina qayta tashkil qila oldi. Xalqimizning qaxramonona qarshiligiga qaramasdan yangi xarbiy texnika bilan qurollangan rus qushinlari 1860-1864 yillarda Pishpak, Tuqmoq, Avliyoota, Turkiston, CHimkent shaxarlari va ular atrofidagi qishloqlarni bosib oldilar. Bu janglarda ko'ngilli ximoyachilar, Qo'qon xonligi sarkardasi mulla Alimqul va boshqalar o'z qaxramonliklari bilan vatanparvarlik namunalarini ko'rsatdilar.

1864 yil oktyabrida general Chernyaev boshchiligidagi rus qushinlarining Toshkentga xujumi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, ular Niyozbek qal'asini egallab, Chirchiq

daryosidagi to'g'onni buzib tashladilar va shaharga suv chiqmay qoldi. 1865 yil may oyida ruslar Toshkent shaxriga yangitdan xujum boshladilar. Ximoyachilarning fidokorligi, Mulla Alimqulning tadbirkorligi yangi xarbiy qurollar va muntazam xarbiy qo'shin oldida o'jiz edi. Toshkentni ruslar 42 kun deganda bosib oldilar.

1865-1866 yillarda rus qoshinlari Qo'qon xoni va Buxoro amiri o'rtasida xamisha qo'ldan-qo'lga o'tib turgan Xo'jand, O'ratepa, Jizzax shaxarlarini qattiq janglardan keyin egalladi.

Buxoro amiri Muzaffarning kurgan tadbirlariga, xalqning qaxramonona qarshiliklariga qaramasdan 1868 yilgi Cho'ponota va Zirabuloq janglarida ruslarning qo'li baland keldi. Natijada amir Muzaffar Qo'qon xoni Xudoyorxon (1864-1879) kabi Rossiya bilan noteng sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Qo'kon xonligiga va Buxoro amirligiga tegishli bo'lgan yerlarning katta qismi Rossiya tasarrufiga o'tkazildi. Katta miqdorda tovon puli to'landi.

Olinmas qal'a xisoblangan Xiva xonligiga ruslar qattiq tayyorgarliklardan keyin 1873 yilda xujum qildilar. Xonlikdagi qoloqlik, xarbiy texnika va san'atning pastligi bu yerda xam ruslarning qolib kelishiga asos bo'ldi. Xiva xoni Muhammad Raximxon Feruz (1864-1910) Gandimiyon shartnomasiga asosan 2200000 oltin so'm to'ladi xamda Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlaridan va mustaqil tashqi siyosat yurgizishdan maxrum bo'ldi. Ruslarning O'rta Osiyodagi xarbiy xarakatlari XIX asrning 80-yillari o'rtalarigacha chorvador ko'chmanchi turkmanlarni buysundurgunga qadar davom etdi. Rossiya o'lkamiz xalqlarini kuch, qurol, talonchilik va vayronagarchiliklar yo'li bilan bosib oldi.

4. 1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, o'lka to'la ravishda xarbiylar qo'liga o'tdi va o'lkani boshqarish katta vakolatlarga ega bo'lgan Turkiston general-gubernatorligiga topshirildi. Turkiston general-gubernatori lavozimiga general fon Kaufman tayinlandi.

General-gubernator katta xuquqlarga ega bo'lib, xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar olib borishi, soliq siyosatini belgilashi, rus fuqaroligi xuquqini berishi, maxalliy axoli ustidan chiqarilgan turli xukmlarni ijro etishga ruxsat berishi mumkin edi. Bu «Vaqтли Nizom» qonuni chor ma'muriyatining mustamlakachilik siyosati manfaatlariga mos kelmasligi sezila boshlangach, Kaufman Rossiya imperatoriga 1873 yilda Turkiston o'lkasini boshqarishning yangi nizom loyixasini taqdim etdi. Nizom 1886 yilda podsho Aleksandr II tomonidan tasdiqlandi. Nizomga ko'ra, o'lkada Rossiya xukmronligi yanada mustaxkamlanishi, o'lka yerlari avvalgidek xarbiy vazirga buysundirilishi nazarda tutilgan. Markaziy o'lka boshqaruvi general-gubernator xamda uning Kengashi va maxkamasidan iborat edi.

XIX asrning 90-yillariga kelib, Turkiston general-gubernatorligi beshta — Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlariga, viloyatlar uyezdlarga, uyezdlar bo'lislarga, bo'lislar uchastkalarga bo'linib boshqariladigan bo'ldi.

Turkistonning barcha viloyatlarida xarbiy gubernatorlik boshqarmalari ta'sis etildi. Xarbiy gubernatorlar bevosita podsho tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Viloyat boshliqlari esa doimo xarbiy gubernatorlarning nazorati ostida bo'ldi.

O'lkada mustamlakachilik tartiblari o'rnatilishiga qadar xakamlik vazifasini bajarib kelgan qozilar maxalliy axoli o'rtasidagi xuquqiy muammolarni shariat va odat normalariga tayanib xal qiluvchi organ sifatida saqlanib qolindi. Bu, albatta, maxalliy

xalq ommasining noroziligini kuchaytirmaslik maqsadida ko'rilgan tadbirlar edi. Ular general-gubernator tomonidan tasdiqlanib, uyezd boshliqlari nazorati ostida ish olib bordi.

Turkiston general-gubernatorligining markazi — Toshkentni boshqaruv 1870 yilgi shaxar boshqaruvi qoidasiga ko'ra tulig'i bilan podsho ma'muriyati qo'liga o'tdi. 1877 yilgacha eski shaxar va yangi shaxar aloxida boshqarilsa-da, lekin eski shaxarda xokimiyat general Geyns qo'lida edi. Usha yili shaxar Davlat dumasiga saylovlar bo'ldi. Saylangan 71 deputatning atigi 21 nafari maxalliy axoli vakillari edi.

Shunday qilib, XIX asrning oxirlarida O'rta Osiyoning katta qismi Turkiston general-gubernatorligi nomi bilan Rossiya tasarrufiga o'tdi. Qo'qon xonligi tugatilib, Xiva xonligi va Buxoro amirligi Rossiya imperiyasiga qarashli kichik, yarim mustamlaka davlatga aylanib qoldilar.

Turkistonning xom ashyo bazasiga aylantirilishi va o'lkada chor Rossiyasi iqtisodiy xamda siyosiy manfaatlarining amalga oshirilishi Chor Rossiyasi Turkiston o'lkasini egallagan kunlaridan boshlab o'zining iqtisodiy mustamlakachilik niyatlarini amalga oshirishga kirishdi. Buning uchun, birinchi navbatda, Rossiya gubernyalaridagi sanoat korxonalarini muntazam ravishda xom-ashyo bilan taa'minlab turuvchi temir yo'llar kurildi. Shu maqsadda 1881-1886 yillarda Mixaylovskiy ko'rfazidan Chorjo'yga Kaspiyorti temir yo'li ko'rildi, 1888 yilda bu yo'l uzaytirilib, Samarqandga yetkazildi. 1906 yilda Toshkent - Orenburg temir yo'li ishga tushirildi. 1912 yilda Farg'ona vodiysi xam Rossiya bilan temir yo'l orqali bog'landi.

Mustamlaka Turkistonda temir yo'llarni kurib bitirilishi o'lkani Rossiya sanoatining g'ildiragiga yanada maxkamroq bog'ladi. O'lkaning xom-ashyo yetkazib beruvchi manba sifatidagi urni mustaxkamlangach, bu yerga turli firma va birjalar kirib kela boshladi va ular Turkistonning iqtisodiy xayotida jadallik bilan o'z ta'sirini kuchaytirib bordi. Ular o'lkadan xom-ashyo olib ketish, Rossiyadan sanoat va qishloq xo'jalik maxsulotlari olib kelib sotish bilan cheklanmay sug'oriladigan yerlarni sotib olib paxta ekishni kengaytirdilar. Paxtachilikning rivojlanishi bunday firma-birjalar, maxalliy sudxur va savdogarlar uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Ular asosan xom-ashyo yetishtirish yo'liga o'tib olgan dexqonlarga kelasi yil oladigan xosili xisobidan pul qarz berar edilar. Dexqonlarning moddiy axvoli og'irlashgan sari ularning xosildan tushgan daromadi qarzini to'lashga, yerga ishlov berishga, oilasiga oziq-ovqat maxsulotlarini sotib olishga xam yetmas, ikkinchi tomondan katta er maydonlari maxalliy boylar va sudxurlar qo'liga o'tib keta boshladi. Bu xolat yersiz dexqonlar, mardikorlar va arzon ishchi kuchini yanada ko'payishiga sabab bo'ldi.

Rossiya sanoatida paxta tolasiga bo'lgan extiyojning ortib borishi bu yerlarda yetishtiriladigan paxtaning sifatiga e'tiborni kuchaytirdi. Shu maqsadda o'lka yerlarida paxtaning Amerika navlarini etishtirishni yo'lga quyish buyicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib boruvchi stantsiyalar tashkil etildi. Xatto bu navlarni o'rganish uchun Amerikaga maxsus mutaxassislar xam yuboriladi. Mustamlaka yillarida bunday navlar o'lka paxtachiligida yetti barobar ko'paydi.

Rossiya uchun Turkistondan ko'prok foyda ko'rish maqsadida o'lkaning o'zida xom-ashyoga dastlabki ishlov beruvchi korxonalar tashkil etishga kirishildi. Bunday korxonalar o'lkada barpo bo'layotgan sanoatning asosiy soxasi edi. 1900 yilgacha Turkistonda 170 dan ortiq sanoat korxonalari ishga tushirildi. Bularning 80% ni paxtaga

qayta ishlov beruvchi korxonalar tashkil etdi. O'lkani o'zida ishlab chiqarish bilan bog'liq bulgan sanoatning rivojlanishi va Rossiyadan kirib kelayotgan tayyor sanoat maxsulotlari asrlar davomida xunarmandchilik bilan shug'ullanib kelayotgan axolini xonavayron etdi.

Raqobat natijasida xunarmandchilikning ko'plab soxalari inqirozga yuz tutdi, xonavayron bo'lgan xunarmandlar xam yersiz dexqonlar singari ishsizlar safini to'ldirib bordi.

O'lkani ko'plab unumdor yerlariga paxta ekilishi boshqoli ekinlar ekiladigan maydonlarning qisqarishiga olib keldi. Ming yillar davomida o'zini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlab kelgan maxalliy axoli asta-sekin oziq-ovqat masalasida Rossiyaga qaram bo'lib qoldi. G'alla maxsulotlari o'lkaga Rossiyadan keltirilib, unga chor ma'murlarining o'zi narx-navoni belgiladi. Sanoatda band bo'lgan maxalliy ishchilarning turmush sharoiti yana xam og'ir edi. CHunki ularning ish xaqi Yevropalik ishchilardan 2-2,5 barobar kam bo'lsa, olinadigan soliqlar va jarimalar shuncha ko'p edi.

Mustamlakachilik siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Turkiston o'lkasini ruslashtirishdan iborat bo'ldi. Podsho xukumati ko'p minglab yersiz dexqonlarni, ishsizlarni mustamlaka Turkistonga ko'chirib keltirishi bu maqsadga erishishda katta o'rin tutadi.

Chorizm Turkistonni rus inqilobchilari va sotsial-demokratlarini surgun qiladigan makonga aylantirdi. Markaziy Rossiya, Kavkazortidan kelgan Rossiya monarxiyasining minglab raqobatchilari Turkistonning yirik shaxarlariga joylashib oldilar.

Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarga katta imtiyozlar berildi, ularning joylashishi, dexqonchilik qilishi uchun ko'p miqdorda mablag'lar ajratildi, o'zini o'nglab olgunga qadar oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlab turildi.

Yangi tashkil topgan rus qishloqlari axolisi maxalliy axoliga nisbatan ancha ko'proq ekin maydonlariga ega bo'ldi, ma'lum muddatgacha soliqdan xam ozod qilindi. Natijada, ko'chirib keltirilganlar qisqa vaqtda ishlab chiqarishning texnikaviy zaminini xam yaxshilab oldilar. Bunday imtiyozlarni chor ma'murlari, «Rossiyadan ko'chib kelayotganlar bo'sh yerlarni o'zlashtirishga, bog'lar yaratishga yordam beradi», deb ko'rsatdi. Aslini olganda qashshoqlashib ketgan yuz minglab axolining O'rta Osiyoga ko'chirib keltirilishi Rossiyada tobora chuqurlashib borayotgan ichki ziddiyatlarni xal etishning bir yo'li bo'ldi.

Mustamlaka o'lkada ko'p sonli rus axolisining mavjudligi Rossiya uchun xarbiy va siyosiy tayanch bo'ldi. Ular ayni bir vaqtda maxalliy xalqlarning mustamlakachilik tuzumiga qarshi bo'lgan xarakatlarini bug'ib turish uchun tayanch vazifani bajardilar. Chorizmning Turkistondagi madaniy-ma'rifiy ishlari mustamlakachilik siyosatiga to'la buysundirildi. Bu boradagi siyosat maxalliy axolining ma'naviy xayotiga aralashmaslik deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, aslida axolini ruslashtirish, milliy madaniyatini cheklash, kamsitishdan iborat bo'ldi. Shu maqsadda dastlabki tadbirlar Yevropa turmush tarzini ifoda etuvchi maktablarni ochishdan boshlandi. O'lkada joriy etilgan rus-tuzem maktablari xaqidagi loyixaga binoan 1884 yili Toshkentda dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi.

Podsho ma'murlari maxalliy maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishni maxalliy axolini ruslashtirish borasidagi katta tusiqlik deb qaradilar.

Shu sababli eski maktablarda o'kish-o'kitish ishlarini yaxshilash uchun biror bir tadbir ko'rilmadi. Maktablarning axvoli Rossiya bosqinidan avval qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolib ketaverdi.

Rossiya Turkistonni istilo qilgach, rus ma'murlari o'z mavqelarini mustaxkamlash uchun maxalliy xalqning ayrim an'analaridan, urf-odatlaridan foydalanishga urindilar va shu maqsadda diniy aqidalardan, maxalliy xalq o'rtasida obru-e'tibor qozongan shaxslardan, ruxoniylardan foydalandilar. Maxalliy xalqlarning tarixiy qadriyatlariga, diniy e'tiqodlariga ta'sir o'tkazish, ularni ma'naviy qaramlikda ushlash uchun Rossiya ma'muriyati, tajribali mustamlakachi davlatlarning o'z mustamlakalarida olib borgan missionerlik siyosatlaridan foydalandilar. Ostroumov va boshqa missionerlarning o'lkadagi faoliyati buning yorqin misolidir.

Maxalliy axolining yashash tarzi, sixat-salomatligini yaxshilash borasida xam biron-bir tadbir amalga oshirilmadi. Guberniyalarda, uezdlarda bir yoki ikki vrach bo'lib, ular xam asosan, soldatlar va rus axolisiga yordam ko'rsatish bilan band bo'lganlar.

Masalan, 250 ming qoraqalpok axolisi orasida atigi bitta shifokor bor edi. Vrachlar yetishmasligini, sog'liqni saqlash ishlarining bunday axvolini chor ma'murlari «maxalliy axoli kuchli, sog'lom va kasal bo'lmaydi. Ular yashaydilar va vaqti kelganda o'ladilar. Tarqalgan epidemiyalarga qanchalik pul ajratilmasin, baribir yetmaydi», — deb chorizmning shovinistik siyosatini yaqqol namoyish etdilar.

O'lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta-sekin maxalliy axolining moddiy va ma'naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlanishiga olib kelib, chorizm mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik xarakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi.

A D A B I Y O T L A R:

1. Ziyozamat. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, 2000.
2. Ziyoev X. Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va xukmronligiga qarshi kurash.-T., Sharq, 1998.
3. Inoyatov X. SH. Qo'qon xonligi Rossiyaga qo'shilish arafasida va 1875-1876 yillarda Qo'qon qo'zgaloni. - T., 1956.
4. Nabiev R.N. Iz istorii Kokandkogo xanstvo. - T., Fan, 1973.
5. O'zbekiston xalqlari tarixi. 2-jild. - T., Fan, 1993.
6. Avaz Muxammad Attor Xuqandiy. Tarixi jahonnomai. – T., SHarq yulduzi, 1991. №8.

4. Mavzu. O'zbekistonning sho'rolar davri tarixini o'rganish muammolari.

Reja:

1. Turkiston Fevral inqilobi arafasida.

2. Istiqloлчаilik xarakati tarixini o'rganish muammolari.

2. Turkistonda sovet hokimyatini o'rnatilishi tarixini o'rganish muammolari.

1. XX asr boshlarida hozirgi O'zbekistan xududi tarkibiga uch davlat birlashmasi: Rossiya O'rta Osiyoni zabt etganidan keyin tuzilgan va uning tarkibiga mustamlaka sifatida qo'shib olingan Turkiston general-gubernatorligi, shuningdek, yuzaki ravishda mustaqil bo'lgan, ammo Rossiyaga qaram hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligi kirar edi. O'sha vaqtda xududining kattaligi va aholisining ko'pligi jihatidan Turkiston

o'lkasi yoki Turkiston deb atalgan Turkiston general-gubernatorli yirik sanalardi. Uning tarkibiga Samarqand, Sirdaryo, Fargona, Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlari kirar edi. O'lkadagi besh milliondan ko'proq aholining asosiy, ko'pchilik qismini o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, turkmanlar va boshqa yerli xalqlar tashkil etardi. Ularning xammasi islom diniga e'tiqod qiluvchi musulmonlar edi.

Ko'pchilik aholi turmush darajasining pasayishi va uning qashshoqlashuvi bilan uyg'unlashib ketgan davomli turg'unlikka olib kelgan omillarni birinchi qatorida Turkiston jamiyatini g'arb usulida yangilash (zamonaviylashtirish) turardi. Mustamlakachilik usullari bilan tashqaridan amalga oshirilgan bu yangilanish jarayoni doimo qoloqlikda saqlash omiliga aylanib ketdi. Birinchidan, iqtisodiy ekspansiya (bosqinchilik) yillari mobaynida vujudga keltirilgan Turkiston xalq xo'jaligining yangi o'choqlari — zo'r berib rivojlanayotgan paxtachilik, paxta tozalash, paxta yog'i ishlab chiqarish, qazilma xom ashyolarni qazib olish (konchilik), temir yo'l transporti tarmoqlari va boshqa sohalar o'lka milliy xo'jalik majmuasining tarkibiy qismi emas edi. Bu tarmoqlar Rossiya markaziy sanoat rayonlarining talab-ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, bular mahsulotining Turkiston doirasidan chetga chiqarilishi uni olinadigan foydadan butunlay mahrum etar, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini barbod qilardi. Ikkinchidan, kapitalistik ishlab chiqarish o'choqlarining barpo etilishi o'lka iqtisodiyotini izdan chiqardi, ko'p ukladli ijtimoiy tuzilmani vujudga keltirdi. Bunda asosan hunarmandchilik va kosibchilik ishlab chiqarishi metropoliya sanoat tovarlarining raqobati sababli tobora ko'proq tushkunlikka uchrab, emirila bordi. Va, nihoyat, Rossiya iqtisodiyoti uchun ishlagan o'lka xo'jaligining dehqonchilik — xom ashyo yetishtirish yo'nalishida bo'lishi, donli ekin maydonlarining qisqartirilishi, hunarmandchilik-kosibchilik ishlab chiqarishining tushkunlikka uchraganligi o'lkaning iqtisodiy jihatdan tobeligini yanada kuchaytirdi. Ana shu tobelik halokatli oqibatlarining butun og'irligini Birinchi jahon urushi (1914-1917) yillarida xalq ommasi o'z gardanida sinab ko'rdi: muntazam harakatda bo'lgan temir yo'llar ishidagi uzilish va barbod bo'lish hollarining tez-tez sodir bo'lib turganligi sababli oziq-ovqat tangligi va ocharchilik surunkali tus oldi.

Chorizm o'rnatgan va bosqinchi armiyaning nayzalariga tayanib o'lkani idora qilgan ma'muriy mustamlakachilik devonining cheklanmagan hukmronligi sharoitida kelgindi aholining barcha tabaqalari imtiyozli yashagani holda, iqtisodiy qoloqlik o'lkadagi mahalliy xalqning siyosiy huquqsizligi sababli ko'proq kuchayib bordi.

Madaniyat sohasida tashqaridan tiqishtirilgan zamonaviylashtirish jarayoni milliy madaniy merosni barbod etish, xalqning yashovchan an'anaviy qadriyatlarini yo'q qilish xavfini tug'dirdi.

Mustamlakachilik Turkiston xo'jaligining an'anaviy tarkibiga putur yetkazish bilan bir qatorda milliy asosda burjua yo'nalishida o'z ahvolini mustaqil ravishda o'zgartirish imkoniyatidan uni mahrum etdi, turg'unlikka, inqirozga, qoloqlikka mahkum qildi, ishsizlik o'sishiga, xalq turmush darajasi pasayib ketishiga ko'maklashdi. Bularning hammasi ijtimoiy hayotda nizo va mojarolarni ko'paytirdi, siyosiy beqarorlikni, kuchlar qarama-qarshiligini kuchaytirdi.

Tarixiy jihatdan bu jarayonda musulmon ruhoniylari zimmasiga birlashtiruvchilik vazifasi yuklandi. Barcha darajadagi ulamolar (va'xsonlar, diniy o'quv yurtlarining muallimlari, qozikalonlar, xayr-ehson qiluvchi muassasalar boshqaruvchilari va

boshqalar) o'z tasarruflarida bo'lgan tarbiya, maorif, ta'limning keng tarmoqlari — masjidlar, maktablar, madrasalar, oila, mahalla orqali islom mavqeini mustaxkamlash uning aqida va normalari, an'anaviy aloqalari va islom qadriyatlarining buzilmasligini saqlab qolish borasida muntazam ravishda ish olib bordilar.

Biroq, islomning shariat mavqeini mustaxkamlashga va himoya qilishga qaratilgan siyosati, o'zi boshchilik qilgan kuchlarning niyatlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, musulmon ijtimoiy tuzilmalarining aslida zaiflashuviga olib keldi, uning o'zi ishlab chiqaruvchi kuchlar turg'unligini vujudga keltirdi, o'z jamiyatining tashqi dunyodan yakkalanib, ajralib, begonalarlashib qolishini asta-sekin kuchaytirdi.

Jahon jamiyatida yakkalanib qolish va qoloqlik xavfini anglash tobora yaqqolroq sezilayotgan edi. Turg'unlik, xalq ommasini kashshoqlashuviga olib boruvchi tamoyillar o'lkaning ilg'or namoyandalarni befarq qoldirmasligi mumkin emasdi. Jamiyatni isloh qilish, yangilash, zamon talablari bilan uzaro bog'liq holda, boshqa sivilizatsiyalarning eng yaxshi ilmiy, texnikaviy va madaniy yutuklaridan foydalanib, jamiyatni taraqqiyot, fan, ta'lim yo'lida rivojlantirish g'oyalari jamoatchilik ongida tobora kuchayib bordi. Turkistonning aql-zakovatli kuchlari islomning insonparvarlik qadriyatlarini saklab qolish, ijtimoiy hayot asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida uning mavqeini mustahkamlash yo'lini tutib isloh qilishni, uning aqidalarini zamonga moslashtirib talqin qilish zarurligini, odamlarning kundalik turmushida shariat asoslarini yumshatishni yoqlab fikr bildirdilar.

Ziyolilarning muayyan guruhi ana shu muddaolarning ongli ifodachilari sifatida maydonga chiqdilar, ularning ko'plari bir necha marta chet ellarda, arab dunyosi mamlakatlarida, Turkiya va Rossiyada bo'lib, u yerda zamonaviy bilim olishgan, XIX asr o'rtalaridan boshlab islom mamlakatlarida rivojlangan islohotchilik harakati rahbarlari bilan shaxsiy muloqotlar ta'siri ostida yashardilar.

Ko'pgina yosh taraqqiyparvarlar Turkiyadan, Afg'onistondan va boshqa mamlakatlardan qaytib kelganlaridan keyin u yoki bu darajada panturkizm, panislomizm va panosiyocha g'oyalarning tarqatuvchilari bo'lishdi. Tilga olingan ta'limotlar milliy ozodlik harakatining mafkuraviy negizini shakllantirishga ta'sir o'tkazdi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, Tanzimat davridayoq Turkiyada vujudga kelgan (bu Usmonlilar imperiyasidagi islohotlar nomi bo'lib, feodal tuzumining tushkunligini bir oz jadallashtirishga va burjua munosabatlarining paydo bo'lishiga yordam berdi.) panturkchilik XIX asrning 70-yillarida barcha turk xalqlarini milliy va davlat yo'li bilan birlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ta'limot edi. Ziyosho, Ahmad Vafiq Posho, Oxunzoda Mirza Fattoh G'ali va boshqalar bu ta'limotning dastlabki mafkurachilari edilar. Panturkchilar aniq dastur asosida jipslashgan maslaqdoshlarning siyosiy birlashmasi emas edi. Ularning doirasi asosan aholi ommasi bilan yaqindan aloqada bo'lmagan oqsuyak oilalar vakillaridan iborat bo'lib, g'oyalari esa Turkiyaning o'zida ham hali keng ommalashmagan edi. Bunga sabab, turklar oldida umumturkiy vazifalardan ko'ra milliy turk vazifalari muhimroq bo'lib turardi va ular ana shu doiralardan chiqmaslikka harakat qildilar.

Turkiston panturkchilari orasida ham tabiiy chegaralanish jarayoni kuzatildi. An'anaviy panturkchilar o'zlarining avvalgi mavqelarini asta-sekin yo'qotib, ular o'rniga rahbarlarining yangi avlodi keldi: ular Turkistonni Turkiya himoyasidagi qandaydir umumturk davlatining tarkibiy qismi sifatida emas, balki ana shu viloyatlarda

yashayotgan barcha xalqlarni o'z milliy-madaniy taqdirini o'zlari belgilashi asosida tashkil etilgan ayrim hududiy muxtor federatsiya tarzida ko'rardilar.

Rossiyaning rus-yapon urushida mag'lubiyatga uchraganligi va birinchi rus inqilobi barcha mazlum xalqlar ongida chorizm obro'-e'tibori va kuchini bo'shashtirib, inqilobiy tafakkurga qiziqishni uyg'otgan va milliy ozodlikka erishish imkoniyatiga umid bag'ishlagan bo'lsa, Sharqdagi inqilob va o'sha mintaqalardan Turkistonga kirib kelgan mafkuraviy oqimlar (ziddiyatli va xilma-xil bo'lishiga qaramay) muxolif kuchlarni birlashtirishga, mahalliy siyosiy kuchlarni qaror topishi va rivojlanishiga kuchli turtki bo'ldi.

Turkistonning ijtimoiy hayot maydoniga madaniy-ma'rifiy xarakat sifatida kelgan va o'z oldiga eski maktab ta'limini isloh qilishni maqsad etib qo'ygan jadidchilik XX asrning boshlarida keng ijtimoiy harakat tarzida shakllandi. Jadidchilik turli tabaqalardan chiqqan fuqarolarni: vujudga kelayotgan yosh milliy ziyolilar namoyandalarini, musulmon ruhoniylari ilg'or unsurlarini, savdogarlarni, diniy maktablar muallimlari va talabalarini, mayda amaldorlarni, ilg'or noshirlar, yozuvchilar, jurnalistlar va boshqalarni o'z saflarida birlashtirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Abdulvoxid Burhonov, Fayzulla Xo'jaev, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xo'jaev, Munavvar Qori, Polvonniyoz Yusupov, Tavallo jadidlarning eng taniqli namoyandalari edi.

Taraqqiyparvarlar (jadidlar o'zlarini shunday deb atardilar) chorizmning qarshiligini bartaraf etib, jismoniy jihatdan yo'q qilib yuborish taxdidiga ham qaramasdan, o'z ma'rifatparvarlik faoliyatidan qaytmadilar, tabiiy fanlar asoslari o'qitiladigan yangi usul maktablari tarmoqlarini ochib, gazeta va jurnallar nashr etdilar, chop qilingan mahsulotlarni tarqatib, o'zlarining badiiy asarlari asosida xalq ommasi bilan aloqani yo'lga qo'yib, ana shu aloqa vositalarini mustahkamladilar, xalqda taraqqiyot, ilm sari intilishni uyg'otdilar, ularni butun insoniyat hayoti bilan bog'ladilar.

O'n yilliklar mobaynida asta-sekin rivojlangan jarayonlar, ham tashqi siyosat, ham ichki siyosat borasida yangi tamoyillar va voqealar XX asrning ikkinchi o'n yilligi boshlariga kelib O'rta Osiyodagi boshqa davlat birlashmalari — Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham ijtimoiy-siyosiy hayot maydoniga chiqdi. Madaniy-siyosiy, ma'rifiy oqim sifatida Turkiston taraqqiyparvarlari bilan ayni bir vaqtda vujudga kelgan Buxoro va Xivaning demokratik ruxdagi yosh ziyolilari ham shu davrda siyosiy tus ola boshladi.

2. Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi istiqlolchilik harakatining butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o'tadi, xolos. Chorizmning mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar Turkistonda birinchi bo'lib bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha rejimga qarshi istiqlolchilik harakati 1918 yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi.

Dastlabki istiqlolchi guruhlarining tashkil topishi Kichik va Katta Ergashlarning nomlari bilan bog'liqdir. Turkiston Muxtoriyati hukumati qo'shiniga boshchilik qilgan Kichik Ergash qo'rboshi 1918 yil 19—21 fevralda Qo'qon shahrida qizil askarlarga qarshi bo'lgan «ikki kunlik urush natijasida mag'lubiyatga uchradi, uning 2.000 kishilik armiyasidan omon qolgan ikki yuztacha kishi Kichik Ergash rahbarligida Qo'qon

uyezdidagi Bachqir qishlog'iga (Qo'qondan 18 chaqirim shimoli-sharq tomonda) jang bilan chekinishdi. O'zining kindik qoni to'kilgan Bachqir qishlog'ida Kichik Ergash yigitlari bilan qal'a shaklida istehkom qurib, mustahkam o'rnashib oldi. 26 fevral kuni Bachqirga 5 ta qizil gvardiyachilar otryadi va dashnoqlar drujinasi hujum qilishdi. 27 fevralda bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash qo'rboshi Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi.

Istiqlolchilik harakatining rahbarlari sovet tarixchilari ta'riflaganidek «johil», «ilmsiz» kishilar emas edilar. Ularning ko'plari madrasalarni tamomlagan, siyosiy-ma'rifiy jihatdan yetuk shaxslar edilar. Masalan, Katta Ergash — Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik harakatining dastlabki taniqli namoyandasi. U Qo'qon yaqinidagi Bachqir qishlog'ida tug'ilgan. QO'QONNING eng mashhur mullalaridan biri bo'lgan, shuning uchun uni Mulla Ergash ham deyishgan.

1918 yil mart oyining oxiriga kelib Katta Ergashning nomi Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib ketdi. Sovet ayg'oqchilaridan birining ma'lumotiga ko'ra, «Ergash qo'rboshining musulmon va rus aholisi o'rtasida paydo bo'lishi olqishlarga sazovor bo'ldi, unga eng yuksak tilaklar tilandi hamda uning qiyofasida Andijon va Qo'qonda o'rnashgan sovet qo'shinlaridan, hukumat vakillaridan va har qanday zo'ravonlikdan halos qiluvchi insonni ko'rdilar». U 1921 yil 19 dekabrda o'z qarorgohi Xonobodda qizil askarlarga qarshi bo'lgan jangda halok bo'lgan.

1918 yil mart oyiga kelib Farg'ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsatardi. Madaminbek Skobelev uyezdida, Shermuhammadbek va Nurmuhhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Pahlavon, Qobul, Sotiboldi qozi va Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon shahri atrofida, Eshmat qo'rboshi Qo'qonning Buvayda qishlog'ida, Umar-Choli Urganji qishlog'ida, Jonibek qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda harakat qilmoqda edi.

Bu tarqoq holda bo'lgan istiqloqlilik harakatini yagona qo'mondonlikka bo'ysundirish va birgalikda harakat qilish maqsadida «Sho'roi Islom» va «Sho'roi Ulamo» tashkilotlari a'zolarining tashabbusi bilan 1918 yil mart oyining oxirida Bachqir qishlog'ida Farg'onadagi butun qo'rboshilarning birinchi qurultoyi chaqirildi. Unda 40 dan ortiq yirik qo'rboshilar qatnashdi. Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik harakatining boshlig'i qilib Katta Mulla Ergash saylandi va unga butun musulmon qo'shinlarining Oliy Bosh Qo'mondoni—«Amir al-muslimin» unvoni berildi. Ergash qo'rboshining o'rinbosarlari qilib Madaminbek va Shermuhammadbek tayinlandi. Harakatning asosiy mohiyati Turkiston mustaqilligi uchun kurash bo'lib qolaverdi. 1919 yil 22 oktabrda Pomirning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida bo'lgan anjumanda Madaminbek boshchiligida «Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati» tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 musulmon va 8 rus, hammasi bo'lib 24 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lishi bilan bir qatorda bosh qo'mondon qilib ham tayinlandi.

Oradan sal o'tmay, ya'ni 1919 yil oktabr oyining so'nggi kunlarida Farg'ona vodiysidagi barcha yirik qo'rboshilar Oyim qishloqda to'plandi. Tarixiy hujjatlarning dalolat berishicha, istiqloqlilik harakati tarixida eng yirigi bo'lgan bu qurultoyda, Farg'ona vodiysida harakat kilayotgan 150 tacha qo'rboshi dastalari to'rtta yirik lashkarboshi: Madaminbek, Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon qo'mondonligi

ostida birlashtirildi. qurultoyda islom qo'shinlarining Oliy Bosh Qo'mondoni — «Amir al-muslimin» qilib Madaminbek saylandi. Ammo bu birlashuv kutilgan natijani bermadi. Qurultoydan keyin Xolxo'ja Eshon bosh qo'mondon Madaminbekka bo'ysunmasligini aytib, mustaqil harakat boshladi. U o'zining ta'sir doirasidagi hududlarda Islom shariati asosida qattiq-qo'llik bilan tartib-qoida o'rnatdi. Bu davrda Madaminbek qo'l ostida 30 mingga yaqin, Shermuhammadbekda 20.000, Ergash qo'rboshida esa 8.000 yigit bo'lib, aynan shu uchta lashkarboshilar vodiydagi jangovar harakatlarni boshqarib turgan edilar.

Biroq, Farg'ona vodiysiga tobora qo'shimcha kuchlarning tashlanishi natijasida 1920 yil yanvar oyining o'rtalariga kelib jangovar tashabbus qizil armiya qo'liga o'tdi. Farg'ona fronti qo'shinlari (qizil armiya) birinchi bo'lib Katta Ergash qo'rboshini mag'lubiyatga uchratishdi. P.Paramonov boshchiligidagi yig'ma otryad Qo'qondan chiqib 1920 yil 18 yanvarda Ergashning qarorgohi joylashgan Bachqir qishlog'ini egalladi.

Madaminbek bilan 2-Turkiston o'qchi diviziyasining boshlig'i Vervovkin-Raxalskiy o'rtasida 1920 yil 6 martda Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida yarash bitimi imzolandi. Madaminbek bilan birga sovet hokimiyati tomoniga uning o'nlab qo'rboshilari va 3500 yigitlari o'tgan edi.

Sovetlar tarafiga o'tgan Madaminbek qizil askarlarning katta kuchga ega ekanligini, istiqloqlar bu kuchga bardosh bera olmasliklarini o'sha davrdayoq yaxshi tushungan edi. Kurbooshilarga ishonib o'z hayotlarini ozodlikka tikkan yigitlar behuda qurbon bo'lib ketishini istamagan Madaminbek ularning qurolini tashlab, tinch hayotga qaytishga undash uchun sovetlar tomonida turib harakat qildi. Lekin Madaminbekning diplomatik tadbirlari samarasiz tugadi. Sovetlar tomonidan muzokaralar o'tkazish uchun qo'rboshilar orasiga yuborilgan Madaminbek Shermuhammadbekning roziligi bilan Xolxo'ja Eshon tomonidan 1920 yil 14 mayda Qorovul qishlog'ida o'ldirildi.

Tengsiz janglarda yuzlab vatanparvar lashkarboshilar istilolchilar safidan yetilib chiqdilar. Ulardan Madaminbek, Shermuhammadbek, Katta va Kichik Ergashlar, Muhiddinbek, Omon polvon, Nurmuhhammadbek, Junaidxon, Islom qo'rboshi, Ibrohimbek va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Turkistondagi bu milliy-ozodlik harakati 1936 yilga davom etdi.

3. XX asr boshlaridagi “sotsializm” va “kommunizm” qurish borasidagi haraktalar natijasida Rossiyada bo'lgan revolyutsiya bu sohadagi ishlarni boshlab yubordi. Rossiyada “sotsialistik” davlat qurish boshlandi. 1917 yildan boshlab hokimiyat tepasiga kelgan bol'sheviklar 1922 yilda SSSR davlatini tuzishdi. Ular bu sotsialistik tuzumga Rossiyaning mustamlaka o'lkalarini ham kiritib, Sharqiy yarim sharda qizil imperiyani tashkil etishdi.

1924 yilda esa O'rta Osiyo xaqqlarini milliy-hududiy chegaralash haqida qaror qabul qilinib, bajarishga kirishildi. Unga ko'ra, Markaziy Osiyoda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston respublikalari tashkil topdi.

1925 – 1936 yillar oralig'ida ular birin – ketin “ixtiyoriy ravishda” qizil imperiya tarkibiga kiritildi. Bu imperiya 15 ta “mustaqil”, “tenglar ichida teng” respublikalardan iborat edi. Aslida esa ular Rossiya tarkibidagi mustamlakalar edi.

Yuqoridagi jarayonlar asnosida Markaziy Osiyoda milliy davlatlarning tarkib topishi aks ettiriladi. Vaholangki, bizning davlatchilik tariximiz, xatto, 2700 yillik

tarixga ega Xorazm davlati tarixi bilan chambarchas bog'liq. Lekin bu haqiqatni aksariyat g'arb olimlari tan olmaydilar, ular bizning milliy va mahalliy xususiyatlarimizni bilmaydilar, hisobga olmaydilar ham. Mazkur masala biryoqlama nuqtai nazar bilan emas, tarixiy ob'ektivlik, milliy iftihar, istiqlol istiqbollari ruhida tadqiq etilishi lozim.

SSSR tarkibidagi har bir respublika kabi Markaziy Osiyo Respublikalarining xo'jaligi ham ma'lum bir mahsulotni etkazib berishga ixtisoslashtirildi. Masalan, O'zbekiston SSR butun Ittifoqni paxta bilan ta'minlaydigan bo'lsa, chorvachilik mahsuloti bilan Qozoqig'ston va Qirg'iziston davlatlari bo'yniga yuklangan edi. G'alla bilan ta'minlash esa, anchayin qiyin vazifa bo'lib, sovet davlati o'zining 74 yillik umrining eng gullab yashnagan davrida ham aholisini chet eldan g'alla sotib olib ta'minlashga majbur bo'lgan edi. Buning ildizi 1918 yilga borib taqaladi. Chunki xuddi shu yildan boshlab g'alla etishtiruvchi asosiy qatlam – boy dehqonlar yo'oqtila boshlangan edi. Bu boy dehqonlar, aslida, bugungi rivojlangan davlatlardagi ishbilarmon, tadbirkor fermerlar kabi edi.

Respublikalarni boshqarishda esa, KPSS oliy Preziudumidan vakillar tayinlanib, birinchi kotib va ikkinchi kotiblar tomonidan boshqarilar edi.

XX asr siyosiy inqirozlaridan biri bo'lgan 2-Jahon urushida SSSR tarkibidagi Markaziy Osiyo xalqlari ham qatnashdi. SSSR fashistlar Germaniyasini mag'lubiyatga uchratishda asosiy rol o'ynaydi. Biroq g'alaba katta talafotlar hisobiga qo'lga kiritildi. Chunonchi, SSSRning 27 mln fuqarosi halok bo'ldi. Halok bo'lganlarning 11, 5 mln. ga yaqini askarlar edi. Jami bo'lib ikkinchi jahon urushiga O'zbekistondan 1 mln.433 kishi safarbar etildi. Bu o'sha davrdagi O'zbekistondagi urushga yaroqli aholining 50-60 % ini tashqil etar edi. O'zbekistonlik 120 ming dan ortiq urush frontlarida mardlik va matonatlik ko'rsatgani uchun jangovor orden va medallarga, 338 kishi esa qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. 32 nafar O'zbekistonlik askar uchchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan mukofotlandi. Ahmadjon Shukurov, Mamadali Topiboldiyev, Tuychi Eryigitov, Sobir Rahimov, Mamasharif Fayozov kabi qahramonlarimizning nomlari xalqimiz qalbida abadiy saqlanib qoladi. Xullas, O'zbek xalqi ikkinchi jahon urushi yillarida front ortidagi shavkatli mehnati va janggohlardagi jangovor jasoratlari bilan fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Bundan tashqari, Sovet davlati o'z milliy boyligining uchdan bir qismini yo'qotdi. Sanoatning xalq iste'moli mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi keskin kamaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi urushdan avvalgi darajaga nisbatan 40 % ga kamaydi.

Biroq, SSSR davlati XX asrning so'nggi choragidan boshlab inqirozlar sari yuz tuta boshladi. Zero, o'z oldiga kommunizm qurish kabi vazifani qo'ygan edi. KPSSning XXII s'ezdida (1961-yil) KPSSning yangi dasturi – Kommunizm qurish dasturi qabul qilindi. Xo'sh, kommunimtlar fikricha, kommunizm qanday jamiyat edi.

Birinchidan, bu – ishlab chiqarish vositalari to'la umumxalq (aslida davlat) mulki bo'lgan jamiyat edi.

Ikkinchidan, bu – jamitning barcha a'zolari ijtimoiy jihatdan batamom teng bo'lgan sinfsiz jamiyat edi.

Uchinchidan, bu – ijtimoiy boylikning barcha manbalar mo`l-ko`l bo`lgan, to`lib-toshib turadigan va natijada har kim qobiliyatiga yarasha ishlaydigan, lekin jamiyat boyligidan har kim ehtiyojiga yarasha ulush oladigan jamiyat edi.

To`rtinchidan, bu – mehnat qilish hamma uchun birinchi hayotiy ehtiyoj, anglangan zaruriyat bo`lib qoladigan jamiyat edi.

Vaqt tez orada KPSS va sovet davlati rahbariyati ilgari surgan yuqoridagi vazifalar xomxayol ekanligini tasdiqlay boshladi. Bu esa oliy rahbariyat o`rtasida ziddiyatlarni kuchaytirdi. Buning oqibatida 1964 yilda N.Xrushyov vazifasidan olib tashlandi.

KPSSning kommunizm qurish rejsi barbod bo`lgach, L.I.Brejnev KPSSning XXIV s`ezdida (1971-yil) “rivojlangan sotsializm” nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariyada kommunizm uzoq kelajakda quriladigan jamiyat, deb izohlandi. Ungacha jamiyat sotsializm va kommunizm oralig`ida rivojlangan sotsializm bosqichini bosib o`tishi lozimligi “asoslandi”. Hayot bu nazariyatning ham soxta ekanligini tasdiqladi.

SSSR ning iqtisodiy taraqqiyoti borgan sari pasaya boshladi va unda turg`unlik holati vujudga keldi. Buning asosiy sababi ma`muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotning ilmiy-texnika inqilobi natijalarini qabul qila olmaganligi bo`ldi. Natijada bu iqtisodiyot katta xarajat talab etadigan va kam samara keltiradigan iqtisodiyotga aylanib qoldi.

Byudjet taqchilligi 100 mlrd. so`mdan ortdi. Davlatning oltin zahirasi 6 yilda (1985-1991 yy) 10 barobar kamaydi va u atigi 240 tonnaga tushib qoldi.

80 yillar oxirida O`zbekiston ijtimoiy hayotida joylanish boshlandi. Odamlar xilma-xil fikrlar bildirish, dillaridagi oshkora ayta olish imkoniyatiga ega bo`la boshladilar. O`zbek xalqining dilidagi g`oya – mustaqillik g`oyasi edi, xalq mana shu g`oyani ko`tardi. Mustaqillik uchun harakatda yangi to`lqin boshlandi. Ammo yurtimizda hukmron bo`lgan Markazdan yuborilgan “kadrlar to`dasi”, ularning qosh-qovoqlariga qarab ish yuritadigan ayrim mahalliy ojiz rahbarlar bu g`oyaga, uni amalga oshirishga tusqinlik qildilar, milliy qadriyatlarimizga nisbatan yana qatag`onlik uyushtirildi, to`qib chiqarilgan “paxta ishi” bahonasi bilan o`n minglab kishilar jinoiy javobgarlikka tortildilar va ularning aksariyati qamaldilar.

Bu davrda aholining turmush darajasi shiddat bilan pasaya boshladi. Shunday sharoitda M.S.Gorbachyov «insonparvar, demokratik sotsializm» qurilishini e`lon qildi. Biroq endi uning cho`pchaklariga deyarli hech kim ishonmay qo`ydi. Ittifoq davlati oliy rahbariyati va organlari aholi ko`z o`ngida obro`-e`tiborini, ishonchini yo`qotib qo`ydi.

SSSR ning yagona totalitar davlat sifatida saqlanib turishida KPSS ning roli beqiyos katta bo`lganligiga SSSR ning 70 yillik tarixi guvoh. Biroq qayta qurish yillarida KPSS obro`si borgan sari yo`qolib bordi. Partiyada poraxo`rlik va korrupsiya kuchaydi. Demokratik kuchlar hatto SSSR Konstitutsiyasida yozib qo`yilgan KPSS ning rahbarlik roli haqidagi qoidaning chiqarib tashlanishiga erishdilar (1990 yilda). Shunday sharoitda yangi lavozim – SSSR Prezidenti lavozimi joriy etildi. 1990 yilning mart oyida SSSR Xalq deputatlari III s`ezdi M.S.Gorbachyovni SSSR Prezidenti etib sayladi.

M.S.Gorbachyovning maqsadi SSSR ni qanday bo`lmasin saqlab qolish edi. Chunki u o`zi boshlagan islohot SSSR ni qulatishi mumkinligini aslo xayoliga

keltirmagan edi. Endi u yangi ittifoq shartnomasi imzolanishi uchun bor kuchi bilan harakat qila boshladi.

M.S.Gorbachyov 1991 yilning aprel oyidan boshlab 9 respublika rahbari bilan yangi ittifoq shartnomasi xususida to'g'ridan – to'g'ri muzokara o'tkaza boshladi. Va, nihoyat, 1991-yilning avgust oyida barcha tomonlarni qoniqtiruvchi “Mustaqil Respublikalar Ittifoqi” haqidagi shartnoma loyihasini ishlab chiqishga erishdi.

Unga ko'ra, Markaz endilikda boshqaruvchilik maqomini yo'qotar va u asosan muvofiqlashtirish vazifasi bilan shug'ullanar edi. Markaz ixtiyoriga mudofaa, moliya, ichki ishlar, qisman soliq va ijtimoiy siyosat masalalari qoldirildi, xolos. Ayni paytda rus tili davlat tili maqomini yo'qotib, millatlararo muloqot tiliga aylanardi.

Shartnomani imzolash 1991 20avgustga belgilandi. Biroq, real hokimiyatni qo'ldan chiqarishni istamagan kuchlar 18 avgustdan 19 avgustga o'tar kechasi davlat to'ntarishi ilishga urindilar. Ular GKCHP (Favqulodda Holat Davlat Qo'mitasi) tuzdilar. Qrimda dam olayotgan M.S.Gorbachyov hokimiyatdan chetlatildi. GKCHP ga SSSR vitse-prezidenti G.Yanaev rahbarlik qildi. GKCHP SSSR ning ba'zi hududlarida favqulodda holat joriy etdi. SSSRning 1977 yilgi konstitutsiyasiga zid ravishda tuzilgan davlat organlari bekor qilinishi, muxolif partiyalar faoliyati to'xtatilganligi, mitinglar va namoyishlar o'tkazish man etilganligi, ommaviy axborot vositalari nazoratga olinganligi e'lon qilindi.

Moskva shahriga armiya qismlari kiritildi. Biroq Moskva aholisi GKCHP ni qo'llab-quvvatlamadi. Aksincha, ular GKCHP ga qarshi chiqqan Rossiya Prezidenti B.Elsin tarafida bo'ldilar. B.Elsin moskvaliklarni GKCHP ga qarshi uyushtira oldi. Armiyaning asosiy qismi ham GKCHP ni qo'llab-quvvatlamadi. G'arb davlatlari ham GKCHP ni tan olmadilar. Xalq madadidan mahrum bo'lgan GKCHP oxir-oqibatda mag'lubiyatga uchradi. 22 avgust kuni GKCHP ning barcha rahbarlari davlat to'ntarishi qilishga uringanlikda ayblanib hibsga olindilar.

Noyabr oyida B.Elsin Rossiya Federatsiyasi hududida KPSS faoliyatini taqiqlash haqida farmon chiqardi. Shu tariqa KPSS yagona siyosiy tashkilot sifatida barham topdi. KPSS MK Bosh sekretari lavozimidan voz kechgan M.S.Gorbachyov SSSR ni saqlab qolish uchun harakat qila boshladi. Biroq u hech narsaga erisha olmadi. 1922 yilning 30 dekabrda SSSR ni tuzgan 3 davlat – Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorusiya rahbarlari 1991 yilning 8 dekabr kuni SSSR ni tarqatilganligini e'lon qildilar hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tuzilganligi haqidagi bitimni imzoladilar.

Bu bitim tarixga “Belovej bitimi” nomi bilan kirdi. Shu tariqa SSSR parchalanib ketdi. 21 dekabr kuni yana 8 respublika (Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Moldova) ham bu bitimni imzoladilar. 25 dekabr kuni M.S.Gorbachyov SSSR prezidenti lavozimidan iste'fo berdi.

ADABIYO TLAR:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq,1998.
2. Bobojonova D. O'zbekistonda demokratik jarayonlar va ularning xususiyati.-T.: Fan, 1995.
3. Ishokov F. Proshloye glazami istorika.-T.: O'zbekiston, 1999.

4. Karimov SH., Turg'unov I., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. Uchinchi kitob.-T.; Sharq, 1997.
5. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari.-T.: 2000.
6. Usmonov. Q. va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida.-T.; O'qituvchi, 1996.
7. Xo'jamberdiyev Yo. O'zbeklar ishi.-T.:Yozuvchi, 1990.
8. O'zbekiston sovet mustamlakasi davrida. II-kitob.-T.: Sharq, 2000.
9. Usmonov I. Qatag'on qurbonlari.-Toshkent: 1992.
10. Mahmudov M. Barhayot siymolar.-Toshkent: 1991.
- 11.Shamsutdinov.R.Istiqlol yo'lida shahid ketganlar.-T.: Sharq, 2001.

5. Mavzu. Mustaqillik davri tarixini o`rganish muammolari.

Reja:

1. O`zbekiston Respublikasining tashkil topishi.

2. Milliy davlatchiligimiz an`analarining tiklanishi.

3. O`zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.

1. SHo`rolar zamonida vatandoshlarimiz o`z mehnatlaridan bahramand bo`lish imkoniyatlari umuman yo`q edi. SHunchaki zamona zo`ri tufayli ishlar va mantiqsiz yashar edilar. Binobarin, aql bilan ish tutish, voqelikni idrok qilish, bunyod etish, yaratish tuyg`ulari butunlay so`ndirilgan edi. SHuning uchun ham mamlakat taraqqiyoti sustlashib, odamlar turmush darajasi pasayib borardi. Ana shuning o`zi totalitar tuzum illatlarini ko`rsatadi.

1991yil 19-21 avgustda Moskvada G.YAnaev boshchiligida sodir etilgan davlat to`ntarishiga urunish esa, ulug`davlatchilik, shovinistik va zo`ravonlik o`tkazish siyosatini chuqurlashtirishga va mamlakatda diktatorlik tuzumini o`rnatishga intilish bu jarayonni yakuni bo`ldi.

Tarix taqozosi bilan Islom Abdug`anievich Karimovdek fidoiy insonning 1989 yil iyunda O`zbekistonning birinchi rahbari lavozimiga saylanishi bu sohadagi adolatsizliklarga barham berilishiga olib keldi, adolat tiklandi.

I.A.Karimov xalqning xohish-irodasini bajarib, o`zbek tiliga davlat tili maqomini berish ishiga boshchilik qildi. 1989 yil 21 oktyabrda O`zbekiston SSR oliy Kengashining o`n birinchi chaqiriq o`n birinchi sessiyasda “Davlat tili haqida” gi Qonun qabul qilindi.

I.A.Karimovning sayi-harakatlari natijasida markazdan yuborilgan “kadrlar to`dasi”ga zarba berildi, ular O`zbekistondan birin-ketin chiqib ketishga majbur bo`ldilar. O`zbekistonda rahbar kadrlarni markazdan yuborish, markazning roziligini olish “tajribasi” ga chek qo`yildi. Respublika rahbar kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo`yish kabi ishlarini o`z tasar-rufiga oldi.

Ziddiyatlar avj olgan bir sharoitda O`zbekiston rahba riyati bu yo`nalishlarning nomaqbul ekanligini aniq – ravshan ko`rdi va respublika xalq xo`jaligini bozor iqtisodiyotiga o`zkazishning o`ziga xos yo`lini mustaqil tarzda o`zi belgilay boshladi. Avvalo, “O`zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish kon-septsiyasi” ni tayyorlashga kirishildi. Konseptsiya respublika Reja Davlat Qo`mitasi, Moliya vazirligi, boshqa vazirliklar, idoralar, ilmiy – tadqiqot institutlari, viloyatlar va Toshkent shahar

ijroiya qo'mitalari bilan hamkorlikda tayyorlandi. Unga ko'ra, "O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy printsiplari" ishlab chiqildi va u 1990 yil 17 oktyabrda umumxalq muhokamasi uchun e'lon qilindi.

O'zbekiston hukumati iqtisodiy mustaqillikni amalga oshirishni nazarda tutadigan muayyan konsepsiya ishlab chiqdi. Konsepsiyaga binoan SSSR markaziy idoralaridan farqli o'laroq, 80 yillarning oxiri va 90 yillarning boshida O'zbekiston dadillik bilan iqtisodiy mustaqillik va siyosiy suverenitetni qo'lga kiritish uchun amaliy harakat qila boshladi. Ayni chog'da O'zbekistonning siyosiy mustaqilligi va siyosiy suverenitetini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish uchun ham aniq choralar ko'rildi. Bu borada xalqning xohish – irodasi hisobga olindi.

1990-yil 23-martda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompariyasi Markaziy Komitetining Plenumida O'zbekiston SSR ning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarni hal etishga va konsepsiyalarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berdi.

Plenum respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni hayot taqozo qilayotganligini ko'rsatib, real hokimiyat O'zbekiston kompartiyasidan, Uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq deputatlari kengashlariga berilish, yuzaga kelgan vaziyatda O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi. Prezident muassasasining joriy etilish – respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o'tishni bildirar edi. O'zbekistonda prezident lavozimining ta'sis etilishi respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan dadil qadamlardan dastlabkisi edi.

1990-yil 18 iyunda o'z ishini boshlagan O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi chaqiriq ikkin sessiyasi O'zbekistonning mustaqillikka erishishidagi navbatdagi muhim qadamini qo'ydi. Mazkur sessiyada Oliy Kengash deputatlari faollik ko'rsatdilar. 200 dan ortiq deputat sessiya boshlanishidanoq "Mustaqillik deklaratsiyasi" muhokamasi masalasini kun tartibiga kiritish va kechiktirmasdan shu sessiyada uni qabul qilishni qat'iy talab qildilar.

Natijada "Mustaqillik Deklaratsiyasi" haqidagi masala sessiyaning kun tartibiga kiritildi. Sessiyaning uchinchi kunida "Mustaqillik Deklaratsiyasi" deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi, har bir millat taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi qayta-qayta ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilish va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'nalari hisobga olinishi uqtirildi. Shu kundan boshlab (1990 yil 20 iyun) respublikada O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal qilina bordi.

Markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora tanglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaqqa, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni taklif qildi.

Respublika Oliy Kengashi Rayosati 1991 – yil 26 avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31 avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Partiya nazorat komissiyasining 1991 yil 28 avgustda bo'lgan qo'shma Plenumi Respublika kompartiyasining KPSS MK bilan aloqasini to'xtatishga, KPSS ning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlardagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

Ana shunday vaziyatda O'zbekiston Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi 1991 yil 31 avgustda o'z ishini boshladi. Unda "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida" hamda "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida" gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

1991yil 31avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi sessiyasi bir ovozdan "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" gi Qonunni qabul qildi. O'zbekiston SSR ning nomi "O'zbekiston Respublikasi" deb o'zgartirildi. So'ngra "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti" qabul qilindi.

Oliy Kengash mazkur Bayonot orqali xalqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib, respublika xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasi qaror qabul qilib, unda: "1 sentyabr – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991 yildan boshlab bu bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin", – deb belgilab qo'yildi.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" gi Qonun o'z mohiyatiga ko'ra respublika uchun vaqtincha Konstitutsiya rolini ham o'ynaydigan bo'ldiyu 17 moddadan iborat bu Qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kunning o'zidanoq mustaqil davlat Konstitutsiyasi va ramzlari, shuningdek, milliy valyutani joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish g'oyasi Oliy Kengashning 1990 yil 20 iyunda bo'lib o'tgan ikkinchi sessiyasida ilgari surilgan. Sessiyasida Prezident I. A. Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyi hasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Uning tarkibida deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar, xo'jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar va mutaxassislar kirdi. Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan Konstitutsiyaning g'oyaviy mag'zi, ya'ni konseptsiyasi ustida ish boshlab yuborildi. Natijada, 1992-yil bahorida Konstitutsiya loyihasining 149 ta moddadan iborat yangi varianti ishlab chiqildi va u 1992 yil 26 sentyabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

Qariyb ikki oy davom etgan umumxalq muhokamasidan so'ng bildirilgan taklif va mulohazalar umumlashtirildi va loyiha ushbu taklif va mulohazalar asosida qayta

tuzatilib, 1992 yil 21 noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba e`lon qilindi.

Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi O`zbekiston xalqining irodasini bevosita aniqlash, shuningdek, muhokama davomida to`plangan boy materiallar har tomonlama chuqur o`rganish va umumlashtirish, uni davlatning mujassam Asosiy Qonuni sifatida ifodalash imkonini berdi. Asosiy Qomusimiz mustaqilligimizning mevasi, mahsuli sifatida dunyoga keldi.

1992 yil 8 dekabrda o`n ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining to`qqizinchi sessiyasida 6 bo`lim, 26 bob, 128 modadan iborat O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya qabul qilingan kun 8 dekabr` mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni deb e`lon qilindi.

O`zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, o`zining xalqaro talablar va me`yorlar doirasida qiyofasini ko`rsatmog`i, buning uchun esa o`zining butun imkoniyatlarini, o`ziga xos jihatlarini ifodalovchi davlat ramzlarga ega bo`lmog`i lozim edi. Odatda, ramzlar shunchaki ranglar yig`indisidan iborat shakllar emas, ular ayni ana shu davlatning va shu mamlakat fuqarolarining o`zligidan kelib chiqqa, qolaversa, davlat siyosatining mazmun mohiyatini o`zida mujassam etmog`i kerak.

O`zbekiston Respublikasining Davlat bayrog`i to`g`risida, Davlat gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qarorlar qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekspert gerehida Davlat bayrog`ining variantlari ustida ishlash, Oliy Kengashning tegishli qo`mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog`i, Davlat madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, sessiyaga taqdim etish topshirildi.

1991-yil 18-noyabrda O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sakkizinchi sessiyasida “O`zbekiston Respublikasining davlat bayrog`i to`g`risida” gi Qonun qabul qilindi.

1992-yil 2-iyulda Oliy Kengashning o`ninchi sessiyasida “O`zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to`g`risida” gi Qonun qabul qilindi.

1992-yil 10-dekabrda Oliy Kengashning o`n birinchi sessiyasida “O`zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to`g`risida” gi Qonun qabul qilindi.

O`zbekiston Prezidentining 1994-yil 16 iyundagi Farmoniga muvofiq 1994 yilning 1 iyulidan boshlab O`zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so`m muomalaga kiritildi.

SHunday qilib, qisqa fursat ichida O`zbekiston mus-taqilligini belgilovchi asoslar yaratildi.

2. O`zbek davlatchilik tarixini bus-butun xolda yaratish masalasi o`rta ko`yilmagan ekan. Bu masalani 2700 yillik davlatchiligimiz tarixida Prezident Islom Karimov birinchi bulib davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida kun tartibiga qo`ydi.

O`zbek davlatlari, davlatchilik tariximizning u yoki bu davrlari, xukmronlik qilgan sulolalarning Shajaralari va faoliyatlari haqida ko`plab asarlar yaratilgan. Lekin bu asarlar aloxida-aloxida kitob va qo`lyozmalar bo`lib, yaxlit shakl va mazmunan yagona mundarijaga ega amas. Har biri aloxida yoki bir necha sulola xukmronlik qilgan davrdagi birorta davlatimizning tarixini yoritishga bag`ishlangan. Asosan davlatlarimizni boshqargan sulolalarning siyosiy faoliyatlariga aloxida-

aloxida kitoblar bagishlangan. Masalan, sunggi xonlik zamonlarida Buxoro, Xiva va Qo`qonda bitilgan tarixga oid kitoblarda mavzu doirasi mazkur davlatlarni boshqargan sulolalar va ularning ajdodlari haqida so`uz yuritiladi, xolos. Shunday bir tarixiy manzarada Islom Karimov tomonidan o`zbek davlatchiligi tarixini yaxlit qilib yaratilishi g`oyasini o`rtaga ko`yilishi chinakamiga umummilliy va umumdavlat ahamiyatiga oid tashabbusdir.

Yurtboshimiz davat qilishicha «O`zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifalari «...davlatchiligimizni ilmiy nuqtai nazardan asoslangan tarixini yaratishdir».

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining «Barqarorlik shartlari xamda taraqqiyot kafolatlari» nomli ikkinchi bobida O`zbekistonda davlatchilikni Shakllantirishning asosiy tamoyillarini aniq eritib berdi. Ular quyidagilardan iboratdir:

O`zbekiston tanlagan ustivor qadriyatlar:

1. Demokratiya qadriyatlari;
2. Shaxsning xuquq va erkinliklarini ta`minlash;
3. Erkin bozor iqtisodiyotini barpo etish;

Yangi davlatchilikni barpo etishda taxdid solayotgan omillar:

1. Yangi mustaqil davlatlarda isloxotlarni amalga oshirish shuni ko`rsatmoqdaki, bozor isloxotlarini ro`yobga chiqarish iqtisodiyotda tanazzulga, aholining ko`pchilik qismi turmush sharoitining pasayishiga olib keldi. Bu jamiyatda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo`lishi mumkin. Amaliy ish yurita olmaydigan, ko`pincha mas`uliyatsiz va ekstremistik kayfiyatdagi, kalondimog` muxolifat bu muammoni ayniqsa keskinlashtirib yubordi. Demokratiya bayrogi ostida uzining xatti-xarakatlari bilan jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqardi;

2. Afganistonda, Iroqdagi xarbiy-siyosiy mojarolar va Tojikiston, Qirgizistonda davlatchilikning qaror topishidagi qiyin kechayotgan jarayonlar;

3. Sovetlardan keyingi makonda vujudga kelgan yangi mustaqil davlatlarda ro`y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar va xamdo`stlik doirasida vujudga kelayotgan davlatlararo munosabatlar, integratsiyani jadallashtirish va chuqurlashtirish shiori ostida milliy suverenitetning qaror topishi va mustaxkamlanishi jarayonini to`xtatib ko`yishga turlicha urinishlar;

4. Yangi davlatchiligimiz biz ko`p ishlarni ibtidosidan boshlashga xamda tashqi siyosiy faoliyat bobida yetarli tajribaga ega bo`lmagan xolda jahon xamjamiyatida o`z o`rnimizni topishga majbur bo`lgan bir vaziyatda qaror topganligi;

O`zbekiston tarixida ilk joriy etilgan Respublika Prezidenti lavozimi yangi O`zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimida markaziy o`rinni egalladi. U siyosiy tizimning o`zagi bo`lib qoldi. Konstitutsiyaga muvofiq, davlat hokimiyati organlarining avvalgi totalitar tuzumdan mutlaqo farq qiladigan hokimiyatlarning, ya`ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining bo`linishi printsiplariga asoslangan tizim. Konstitutsiya suveren davlatimizning qonunchilik-xuquqiy negizini shakllantirishning asosiy poydevori, mustaqil davlatchiligimiz tamal toshi bulib, unda :

1. Davlat tuzumi printsiipi
2. Fuqarolarning xuquq va erkinliklari

3. Jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy negizlari va strategik yo`nalishlari mustaxkamlab quyilgan.

Konstitutsiyaga muvofiq, yangi demokratik saylov tizimi asosida O`zbekiston tarixida ilk bor Respublika parlamenti – Oliy majlis xamda vakillik hokimiyatining mahalliy organlariga ko`ppartiyaviylik asosida erkin, muqobil saylovlar o`tkazildi. Parlament saylovlarida Oliy majlis ikki palatali, ya`ni qonunchilik va Senat palatalariga saylovlar bo`lib o`tib, davlatimizni boshqaruv tizimi yanada takomillashdi. Asosiy qonunning qoidalari negizida respublika sud tizimini mustaqil va boshqa tarmoqlarga bogliq bo`lmagan hokimiyat sifatida qaror toptirildi. Xozirgi kunda davlatimizda sud tizimi islox qilinib, jamiyatimizda uning roli mustaxkamlanib bormoqda.

3. O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng kun tartibida jahon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki, sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda mamlakatda barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulkchilik, mulkka egalik va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etardi.

Ziddiyatli va murakkab bir paytda O`zbekiston uchun o`ziga xos taraqqiyot yo`lini tanlash, yangi jamiyat barpo qilish uchun o`z andozasini ishlab chiqish g`oyat dolzarb va ahamiyatli edi. O`z navbatida bunday vazifani uddalash O`zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o`rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyoqarashi, jumladan, diniy e`tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor me`yorlari shuni taqozo etardi.

Ayni chog`da, O`zbekistonning o`z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish andozasini ishlab chiqishda rivojlangan mamlatlarning ko`p asrlik tajribasini o`rganish, ularning foydali qismini o`zlashtirish bilan birga O`zbekiston xalqining turmush tarzi va an`analariga ham tayanish lozim edi. Shuning uchun tub yangilanishlar yo`nalishlarini belgilar ekan, Prezident I.A.Karimov O`zbekiston mustaqilligining dastlabki kunidanoq, “jahon va o`zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rad etmagan holda o`z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo`limizni tanlab olish respublikaning qat`iy pozitsiyasidir” – degan edi.

Albatta, mamlakat uchun hayot-mamot bosqichi bo`lgan bir paytda uning yangi jamiyatga o`tishi bilan bog`liq vazifalarni bajarish davlat rahbaridan yangi sharoitda mos boshqaruv tizimini ishlab chiqishni, jamiyatning iqtisodiy asosini vujudga keltirishni taqozo qilardi. Aholining barcha toifalarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi g`oyalar tizimini yaratishni talab etardi. O`zbekistonning o`ziga xos taraqqiyot yo`li ana shu tarzda tanlandi.

Prezident I. A. Karimov O`zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo`lini ishlab chiqar ekan, o`tmishdan, sobiq sovet tuzumidan meros bo`lib qolgan tajribadan saboq chiqarardi. U O`zbekistonning chinakam mustaqilligini ta`minlash yo`llarini ishlab chiqishda avvalo respublikani rivojlantirishning o`ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini hisobga oldi. Bu xususiyatlar va shart-sharoitlar nimalardan iborat. **Birinchidan**, o`zbek xalqi azaldan jamoa bo`lib, uyushib yashashga odatlangan, to`yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda bir biriga ko`maklashgan. Kattalarni

hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatish, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik, o'zgalarga yordam tuyg'usi o'zbek xalqiga tarixan xosdir. **Ikkinchidan**, O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari yildan-yilga o'sib boruvchi mintaqa hisoblanadi. Mamlakat aholisining 60 % idan ko'prog'i qishloq joylarida istiqomat qiladi va ularning asosiy qismi dehqonchilik sohasida ishlaydi. **Uchinchidan**, O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda uning qulay geografik – siyosiy imkoniyati hisobga olindi. Demak-ki, mintaqalararo aloqalar, dunyoviyini integratsiya yo'lga qo'yishga kirishildi. **To'rtinchidan**, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishida ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya masalasini hisobga olish lozimligini ham ko'rsatib berildi. SHo'rolar davrida kishilar ongida ijtimoiy tenglik tushunchasi, ya'ni yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat baribir boqadi, degan fikr shakllanib, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan, mulkka egalik tuyg'usidan uzoqlashgan edi. **Beshinchidan**, mustaqil O'zbekiston siyosatini belgilashda islom munosabatini tubdan o'zgartirish lozim edi. **Oltinchidan**, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini himoya qilish va ta'minlash imkonini beradigan boy moddiy-ma'naviy hamda ishlab chiqarish potentsialiga va kadrlar qudratiga ega mamlakat ekanligidir. Endi hamma gap ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanishda edi.

Ushbu xulosalar I.A.Karimov tomonidan muntazam to'ldirilib, qadam–baqadam yangi qoida va yo'l-yo'riqlar bilan boyitib borildi.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borishi bir tomondan, avvaldan meros bo'lib qolgan barcha ijobiy tajribalarni chuqur o'zlashtirish imkonini berdi, ikkinchi tomondan esa isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq ajratib berdi. Bu bosqichlarning har biri uchun konkret maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishga sharoit yaratdi. Aniqrog' qilib aytsak, bu tamoyil “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmaslik” haqidagi xalqning dono fikriga asoslanganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida o'ziga xos, o'ziga mos jamiyat va davlatni isloh qilish yo'lidan bormoqda. Jahon tajribasida mavjud andoza – «SHok terapiyasi» va boshqa rivojlanish modellarini ko'r ko'rona qabul qilmadi, oson, istiqbolsiz yo'ldan bormadi. Milliy-mahalliy, tarixiy an'analarimizga sodiq qolgan xolda, milliy xususiyatlarni hisobga olib, jamiyatni yangilashning «o'z yo'l»ini tanladi.

Tenglik bo'lmagan joyda kim kimgadir tobe bo'ladi. Mutelik bor joyda hukmronlik, o'zgalar hisobiga yashash kabi illatlar paydo bo'ladi. Biz so'nggi bir yarim asr mobaynida boshimizdan o'tkazgan mustamlakachilik davrida shunday bo'lgan edi. “Tenglik” so'zining qudrati shundaki, u odamlarning o'zaro munosabatlaridan tortib, mamlakatlararo munosabatlargacha hamma narsani me'yor – mezonga soladi, turli kamsitishlar yoki ortiqcha tobeliklarga chek qo'yadi. Tenglik bor joyda hech kim hech kimdan kam bo'lmaydi.

Mustaqil yashashga, mustaqil fikrlashga, o'z taqdirini o'zi belgilashga, o'z hayotini o'zi izga solishga qodir odam ziddiyatlarni osonlik bilan engadi, dunyoning shiddati muammolar bo'hroni qarshisida dovdirab qolmaydi. Anna shu oddiy hayotiy haqiqatni davlat mustaqilligiga ham qiyoslash mumkin.

Darhaqiqat, hozirgi globalizatsiyalashuv jarayonida Prezidentimiz boshchiligidagi hukumat olib borayotgan siyosat tom ma'noda mustaqil qudratli davlat tuzishdir.

«Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» intilayotgan O'zbekiston xalqi o'z istiqbolini tarixiy an`analarga sodiq qolgan xolgan belgilashi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. Toshkent. O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston- bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. Toshkent. O'zbekiston, 1992.
3. Karimov I.A. -O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent. O'zbekiston, 1993.
4. Levitin L.-I.Karimov-yangi O'zbekiston Prezidenti. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
5. O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi. Toshkent. O'zbekiston, 1992.
6. Jo'rayev N, Fayzullayev T. O'zbekistonning yangi tarixi. T-3. Toshkent. Sharq, 2000.
7. Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili, Toshkent. Sharq, 1999.
8. Mustaqillik: izohli ilmiy - ommabop lug'at. Toshkent. Sharq, 1998.